O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

V. 5440500-Geografiya yo‘nalishi uchun

AHOLI GEOGRAFIYASI

FANDIAN MA’RUZALAR MATNI

Termiz 2009

Ushbu ma’ruzalar matni O`zbekiston Respublikasi Oliy va O`rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan bakalavr bosqichi davlat ta'lim standartiga kiritilgan «Aholi geografiyasi» fani yuzasidan namunaviy dastur asosida yozildi.

«Aholi geografiyasi» fanidan ma'ruza darslarida olingan nazariy bilimlar amaliy mashg`ulot topshiriqlarini yanada mustahkamlash maqsadida tayyorlangan. Ushbu matnlarda jahonning aholisi soni va dinamikasi, irqiy, etnik va diniy tarkibi, mehnat resurslari, aholi migratsiyasi, joylashuvi va zichligi, qishloq va shahar aholisi urbanizatsiya jarayoniga doir topshiriqlar etarlicha berilgan.

Ushbu ma’ruzalar matni geografiya mutaxassisliklari talabalari uchun mo`ljallangan.

Tuzuvchi: geografiya kafedrasi
o`qituvchisi A. Sattorov

Ma'sul muharrir: dots. Allanov Q.

Taqrizchi: k.o`q., g.f.n. Abdunazarov X.

200__ yil __-avgust kuni Tabiiyot-geografiya fakulteti ilmiy kengashining 1-sonli yig`ilishida tasdiqlangan.

Fakultet dekani dots. B. Xoliqnazarov

200__ yil __-avgust kuni geografiya kafedrasining 1-sonli yig`ilishida muxokama qilingan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: g.f.n. H. Abdunazarov

MAVZU: AXOLI GEOGRAFIYASI KURSINING PREDMETI, MAQSAD VA VAZIFALARI.

REJA:

1. Axoli geografiyasi kursining tadqiqot ob'ekti va predmeti
2. Axoli geografiyasining asosiy vazifalari
3. Axoli geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi

Axoli deganda hududda (butun er shari, uning ayrim qismlari, qit'alar, mamlakatlar, shaharlar, rayonlar va hk.) yashayotgan kishilar guruhi tushuniladi. Axoli va uning xo'jalik faoliyati hamma davrlarda geografiya fanini qiziqtirib kelgan. Geografiya fanlari tizimida iqtisodiy geografiyaning qaror topishi bilan bu masalaga qiziqish ayniqsa kuchaydi. Bu b'ejiz emas edi. Chunki iqtisodiy geografiyaning asosiy vazifasi ishlab chiqarish kuchlarining hududiy joylashish qonuniyatlarini o'rganishdir.

Axoli esa xar qanday jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Jamiyat hayoti uchun zrur bo'lgan barcha boyliklar insonning mehnati natijasida yaratiladi. Ishlab chiqarish jarayonida qatnashayotgan mehnat qurollari, xaom ashyo, yoqilg'i va boshqa qo'shimcha materiallar faqat inson qo'li, odam mehnati tufayligina harakatga keltiriladi va ular ishlab chiqarish jarayonining eng aktiv elementlaridir, qolgan barcha ishlab chiqaruvchi kuchlar ishlab chiqarish jarayonining passiv qatnashchilaridir. Shunday qilib, axoli, birinchi navbatda, ishlab chiqarishning asosiy sub'ektidir. U barcha moddiy boyliklarni yaratuvchi asosiy kuchdir.

Axoli ayni paytda ishlab chiqariladigan barcha moddiy boyliklarning asosiy iste'molchisidir ham. Iste'mol esa, butun ijtimoiy ishlab chiqarishni tugallaydigan, unga yakun yasaydigan qismidir. Taraqqiyot jarayonida axolining shaxsiy iste'moli bilan birga, axolining o'zini takror barpo qilinadi - kishilarning avlodlari tarbiyalanadi va voyaga etkaziladi.

Shuning uchun ham axolining geografik jihatdan o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish zarur.

1. Axoli ishlab chiqarish sub'ekti, barcha moddiy ne'matlarni ishlab chiqaruvchi.

2. Ishlab chiqariladigan jami ijtimoiy maxsulotlarni ma'lum qismini iste'molchisi.

3. Axoli butun ijtimi y takror ishlab chiqarish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'zi ham takror barpo qilinishi zarur.

Axoliga xos ana shug'ullanish xususiyatlarni o'rganmay turib, har qanday iqtisodiy geografik muammoni chuqur tadqiq qilish va hal qilish qiyin. Hududi shunga ko'ra, axoli geografiyasi iqtisodiy geografiyaning bir

muhim tarmog‘idir. Aholining hududiy joyshuvi xalq xo‘jaligining joylashuvi hamda tuzilishi bilan bog‘liq va aksincha, axolining joylashuvi, o‘z navbatida, xo‘jalikni rivojlantirish hamda joylashtirishga bevosita ta etadi. Turli mamlakatlar va rayonlar xo‘jaligining ixtisosi va rivojlanish darajasiga shu hududda aholining faoliyati, xo‘jalik tarkibi turlicha bo‘lishi mumkin.

Axoli geografiyasi iqtisodiy geografiyaning bir tarmog‘i bo‘lishi bilan birga boshqa tarmoqlar (sanoat geografiyasi, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, transport geografiyasi) o‘rtasida aloxida o‘rin tutadi. Chunki axoli ishlab chiqaruvchi kuch va ishlab chiqarish sohalarida aktiv qatnashadi, iqtisodiy geografiya o‘rganadigan barcha hodisa va jarayonlarda o‘zi bevosita ishtirok etadi. Binobarin, iqtisodiy geografiyaning barcha boshqa tarmoqlari axoli geografiyasi ko‘rsatkichlariga muhim o‘rin beriladi. Aks holda, tegishli xo‘jalik tarmog‘i geografiyasining barcha xususiyatlari to‘la ochilmay qolishi mumkin.

Chunki hozirgi zamon geografiya fanining muxhim vazifalaridan biri - tabiiy sharoit, xo‘jalik, axolining o‘zaro aloqalari va bir-biriga taini regional analiz qilishda hamda turli mamlakatlar va rayonlarda ana shu aloqalar jarayonida vujudga keladigan hududiy dinamik tizimlarni o‘rganishdan iborat

axoli er sharining turli qismlarida vujudga keladigan aks shunday hududiy dinamik tizimlarning eng aktiv tarkibiy qismidir.

Axoli geografiyasi aholining tarkibi, dinamikasi va joylashuvidagi regional farqlarni, bu farqlarni vujudga keltiradigan qonuniyatlarni, axoli punktlarining hududiy tizimlarini v ularning rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Axoli geografiyasi, shuningdek, axolining er shari bo‘yicha va ayrim mamlakatlar hamda rayonlar miqyosidagi harakatini ham o‘rganadi.

Aholining hududiy joylanish formalari axoli geografiyasining muhim tushunchalaridan biridir.

Axolining hududiy taqsimlanishi va joylashuviga tabiiy sharoit ham ta’sir ko‘rsatadi. Ammo sharoit bilvosita, ya’ni ishlab chiqarish orqali ta’sir etadi.

Axoli geografiyasi bir qancha yo‘nalishlarga bo‘linadi:

1. Axolining tarkibi va takror barpo qilinishidagi geografik farqlar va bu farqlar sababini o‘rganish.

2. Mehnat resurslarini va ulardan foydalanishdagi geografik farqlarni o‘rganish.

3. Axolining hududiy taqsimlanishi va uning harakatini o‘rganish.

4. Aholi punktlari va ularning hududiy tizimlarini o‘rganish. Axoli geografiyasining bu yo‘nalishda shaharlarni va qishloq aholi punktlarini alohida o‘rganuvchi shaharlar geografiyasi va qishloq axoli punktlari geografiyasi vujudga kelgan.

5. Axolining madaniyati va turmush sharoitlaridagi geografik farqlarni va ularning sabablarini o‘rganish.

6. Tarixiy axoli geografiyasi. Bu yo‘nalish o‘tgan tarixiy davrlarda axoli geografiyasini o‘rganadi va tarixiy geografiyasining bir qismi hisoblanadi.

7. Axolini kartaga tushirish.

2. Axoli geografiyasining asosiy vazifalari.

Birinchidan, mamlakatimiz aholisi va Chet mamlakatlar aholisi haqida, ularning soni, va usishi, hududi joylashuvi, migratsiyasi, xhalqlar geografiyasi, axoli punktlarining xilma-xilligi, turli mamlakatlarda sharoitiga qarab shaharlarning rivojlanish muammolari va boshqa ma’lumotlar bilan keng kitobxonlar ommasini va shuningdek, amaliy maqsadlar uchun qiziquvchi tashkilotlarni ta’minlaydi.

Ikinchi muhim vazifa-axoli geografiyasining bevosita amaliy vazifalarini xal qilishga qaratilgan tadqiqot ishlarini kuchaytirish.

Bozor itisodiyoti sharoitida Respublikamiz butun hududi bo‘yicha ayniqsa qishloq axoli punktlarida maktab, mavdo korxonalari, tibbiyot, madaniyat muassasalari va boshqalarni rejaoli joylashtirish, mehnat resurslaridan mumkin qadar to‘la va oqilona foydalanish, shahar bilan qishloq o‘rtasidagi mavjud tafovutlarni asta-sekin tugatib borish, axolining turmush darajasini yanada ko‘tarish, butun axoli punktlari tizimini takomillashtirib borish kabi muammolarni xal qilishda axoli geografiyasi o‘z munosib xissasini qo‘shib kelmoqda.

3. Axoli geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Axoli geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi juda keng va har tomonlamadir. Chunki axolini turli aspektda bevosita o‘rganadigan yoki axoliga taalluqli bo‘lgan masalalarga katt e’tibor beradigan fanlar va fan tarmoqlari juda ko‘pdir.

Axoli geografiyasining o‘z tadqiqotldari jarayonida aloqa qiladigan yoki hamkorlikda ishlaydigan fanlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin.

1. Geografiya fanining boshqa fanlar bilan tarmoqlar bilan aloqasmi. Bular jumlasiga: xo‘jalik geografiyasi, tibbiyot geografiyasi, xizmat ko‘rsatish geografiyasi, turizm geografiyasi, tarixiy geografiya, kartografiya bilan aloqalar kiradi.

Shuningdek, axoli geografiyasi bilan xizmat ko‘rsatish geografiyasi o‘rtasidagi aloqalar va o‘zaro hamkorligi ayniqsa mustahkamdir. Xizmat ko‘rsatish geografiyasi aholini barcha ehtiyojlariga xizmat krsatuvchi xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish darajasi va hududiy joylanishini geografik taqqoslash usulida o‘rganadi, xizmat ko‘rsatish ayrim tarmoqlarini

joylashtirish, qishloq joylarda shahar va shahar aglomeratsiyalarida xizmat ko‘rsatish markazlarini vujudga kelish muammolarini tadqiq qiladi. Xizmat ko‘rsatish geografiyasi o‘rganishi kerak bo‘lgan barcha masalalarning hammasi faqat axoli va axoli punktlari haqidagi batafsil ma’lumotlardagina analiz qilish mumkin. Shuning uchun ham u dastavval axoli geografiyasi tarkibida vujudga kelgan bo‘lib, ular o‘rtasidagi aloqa har tomonlamadir.

Axoli geografiyasi bilan chambarchas va har tomonlama aloqador bo‘lgan fanlarning ikkinchi guruhi demografiya va etnografiya fanlaridir.

Demografiya va etnografiya aloxida guruxga ajratishimiz shu boisdanki, ular ham axoli geografiyasi singari, axolini o‘rganadi. Ularning har qaysisi aholini o‘z nuqtai nazaridan tadqiq qiladi, albatta. Ammo shunday masalalar borki, ularni bu fanlarning har uchchalasi o‘rganadi. Biri ikkinchisining materiallaridan keng foydalanadi.

Axoli geografiyasi aloqa qiladigan fanlarning uchinchi uruxiga antropologiya, sotsiollogiya, mehnat ekonomikasi va boshqa fanlar kiradi.

Axoli geografiyasining sotsiologiyasi bilan aloqalari va hamkorligi ham mustahkamlanib bormoqda. Sotsiologiya jamiyatimizdagi kishilar o‘rtasidagi ko‘p qirrali o‘zaro munosabatlarni o‘rganadi. Turli maqsadlarda o‘tkazish sotsiologik tadqiqotlar axolini geografik jihatdan ta’riflash uchun zarur bo‘lgan ma’lumotni beradi.

Yuqorida sanalgan fanlar bilan axoli geografiyasi aloqalari serqirrali va mazmunlidir.

Tayanch iboralar

Kursni o‘rganishni maqsadi, vazifasi haqida tushunchalar.
Sub’ekt, tarmoqlar, regional, analiz, dinamik tizim, resurs, migratsiyasi, punkt, turkum, demorafiya, etnografiya, antropologiya, sotsiologiya, ekonomika, muassasalar, aspekti, ekspeditsuiya.

Nazorat savollari

1. Axoli geografiyasi kursining predmeti xakida so‘zlab bering.
2. Axoli geografiyasi kursining maqsad va vazifalari nipalardan iborat?
3. Axoli geografiyasini o‘rganish ob’ekti.
4. Kursning predmeti nipalarni tashkil qiladi?
5. Axoli geografiyasining boshqa fanlar bilan aloqasi.
6. Axolini territorial taqsimlanishi va joylashuvi.
7. Axoli punktlari deganda nimani tushunasiz?
8. Axoli punktlariga nimalar kiradi?
9. Mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
10. Axolini ishlab chiqarish bilan bandligi deganda nima tushuniladi?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Se.izd. pererab. i dop. M., 1986.

MAVZU: AXOLINING SONI VA UNING TAKROR BARPO QILINISHI MASALALARI.

REJA:

1. Axoli o‘rtasida o‘lim ko‘rsatkichlari va unga ta’sir etuvchi omillar.
2. O‘rtacha umr ko‘rish.
3. Axolining tabiiy o‘sishi.

Axolining o‘limi haqidagi ma’lumotlar uning takror barpo qilinishi, tabiiy o‘sish darajasini anqlashdja muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘rsatkichdir. Masalan, tug‘ilishga oid ma’lumotlar axolining tabiiy o‘sishi haqidagi xali to‘liq tasavvur bera olmaydi. Uning faqat o‘limga oid ma’lumotlar bilan solishtirgandagina, ularning farqi anilangandagina mamlakat axolisining tabiiy o‘sishi haqidagi konkret absolyut raqamlarni bilib olamiz. Eng qadimgi davrlarda axoli o‘rtaidagi o‘lim ko‘rsatkichining qanday bo‘lganligi haqida hozirgi zamon fani aniq ma’lumotlarga ega emas. Bu haqida olimlar arxeologik ma’lumotlar va bizga etib kelgan ayrim yozma yodgorliklar asosida faqat fikr yuritadilar.

18-Asrning ikkinchi yarmiga qadar dunyoning deyarli barcha qismlarida o‘lim juda ko‘p bo‘lgan. O‘limning sezilarli darajada kamayishi 19-asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Bu davrda o‘limning kamayishi tibbiyot fanining yutuqlari, turli xil og‘ir ukasalliklar epidemiyasiga qarshi samarali kurash choralarining topilishi natijasi edi. O‘limning kamayishi dunyoning hamma joyida bir vaqtda va bir xilda boshlanmagan albatta. O‘limning sazilarli kamayishi avvalo Yevropada boshlandi. 19-Asrning oxirlarig kelib, bu qit’ada o‘lat, chechak, vabo kabi kasalliklar epidemiyasi derli tugatildi. O‘limning kamayishi ketsyinchalik dunyoning boshqa qismlariga ham tarqala boshladi. Ammo axoli o‘rtasidagi o‘lim ko‘rsatkichlari

yil	butun dunyo	MDH	Horij Yevropa	horij Osiyo	Afrika	Amer.	Avstr. Ok-niya
1000	288	12	40	170	50	15	1
15000	436	16	64	250	85	20	1

1650	545	20	83	327	100	13	2
1750	426	30	114	475	95	12	2
1600	911	45	152	597	90	25	2
1900	1617	132	300	915	120	144	6
1940	2252	195	381	1212	176	277	11
1950	2508	180	395	1384	207	329	13
1960	3010	214	426	1684	257	412	17
1970	3632	241	446	1837	276	442	19
1980	4439	266	484	2569	475	603	23
1990	5292	288	498	3108	648	724	26
2000	6250	300	517	3698	872	835	30

Quyoidagi jadvalda dunyodagi aholisi eng tez o‘suvchi davlatlar ko‘rsatilgan.

Mamlakatlar	axolisi (mln.kishi, 1998)	axoli (mln.kishi, 2050, bashorat)
Hindiston	982	1529
Hitoy	1256	1478
Pokiston	148	345
Indoneziya	206	312
Nigeriya	106	244
AQSh	274	349
Braziliya	166	244
Bangladesh	125	212
Meksika	96	141
Fillipin	73	131

“Dunyo axolisi haqida manba” BMT ning 1998 yil axborotidan olingan.

Yuqoridagi jdval manbalarida olingan ma’lumotlar ko‘rsatilishicha 2050 yilda dunyo mamlakatlaridagi eng ko‘p mamlakat Hitoy o‘rnini Hindiston egallashi (1529 mln) ko‘zda tutilmoqda.

Hozirgi davrda eng aholisi ko‘p davlatlar (1996). (Mln. kishi)

1. Hitoy - 1205
2. Hindiston - 913
3. AQSh - 260
4. Indoneziya - 189
5. Braziliya - 159
6. Rossiya - 148
7. Pokiston - 126
8. Yaponiya - 124

9. Bangladesh - 122
10. Nigeriya - 119.

Yuqoridagi ikki jadval tahlili shuni krsatadiki, dunyoning eng ko‘p axoli o‘nlik mamlakatlari ichida yaqin kelajakda Yaponiya hamda Rossiya davlatlari tushish, ular o‘rnini Meksika va Fillipin davlatlari ko‘zda tutiladi.

Kishilik jamiyatining butun tarixi - axoli bir avlodning ikkinchi avlod bilan almashinuvi, uning tinimsiz yangilanib turishidan iborat bu jarayon har yili sodir bo‘ladigan tug‘ilish va o‘lim ko‘rsatikichlaridagi farqda yaqqol namoyon bo‘ladi. Har yoili qandaydir sabablarga ko‘ra vfot etgan axoli o‘rnining yangidan, dunyoga kelgan avlod hisobiga to‘ldirilib borishi axolining takror barpo qilinishi deyiladi. Tug‘ilganlar soni o‘lganlar sonidan ortiq bo‘ldandagina axoli chsoni oshib, ko‘payib, boradi. Bu esa, jamiyat taraqqiyoti uchun muhimdir.

Biz yuqorida axoli barcha ishlab chiqarish jarayonining subekti degan edik. Ishlab chiqarishning normal davom etishi, uning kengayib borishi uchun axoli sonining o‘sib borishi muhim ahamiyatga ega. Axoli barcha ijtimoiy boyliklarning bunyodkoridir. Shuning uchun ha axolining ayniqsa uning mehnatga yaroqli bo‘lgan qismining soni ularning bili va malakasi har bir mamlakat yoki rayonda ijtimoiy ishlab chiqarishning rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Qadimgi dunyo va urta asrlarda yashagan olimlar ham axolining soni uning o‘sib borishi davlatning iqtisodiy, siyosiy va xarbiy holatiga ijobiy ta’sir etishini qayd qilganlar.

Ma’lumki, jamiyat taraqqiyotini belgilab beruvchi asosiy kuch bu moddiy nematlarni ishlab chiqarish usulidir. Jamiyatnig asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi esa odamlar, aholidir. Shuning uchun ham aholi, uning tinmay o‘sib boradigan talablari doim kuzatib boriladi va o‘rganiladi.

Shunday qilib axolining takror barpo qilinish jarayoning negizini tug‘ilish va o‘lim hamda ular o‘rtasidagi farq tashkil qiladi. Ammo ayrim hududlar axolisining o‘sishida tabiiy o‘sishdan tashqari meanik o‘sish ya’ni axolining hududiy taqsimlanishi ham katta rol o‘ynaydi.

Tayanch iboralar

Epidemiya, omillar, endogen, irsiya, ekzogen, sotsial, demografiya, elementlar, analiz, demografiya tanglik, sur’at, mexanik o‘sish.

Nazorat savollari

1. Axolini xisobga olish va axoli ro‘yxatlari
2. Axolini takror barpo qilish masalalari
3. Tug‘ilish va unga ta’sir etuvchi omillar.
4. Axoli o‘rtasida o‘lim ko‘rsatkichlari haqida tushuncha.
5. O‘lim ko‘rsatkichlariga ta’sir etuvchi omillar.

6. O‘rtacha umr ko‘rish deanda nimani tushunasiz?
7. Axolining tabiiy o‘sishi nima?
8. Axolining tabiiy o‘sishi nimalarga bog‘liq bo‘ladi?
9. Qaysi davlatlarda o‘sish yuqori ko‘rsatkichga ega?
10. Aholisi eng kzp davlatlarga misollar keltiring.

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Ye.izd. pererab. i dop. M., 1986.
3. Borisov M. Naseleniya mira. demograficheskiy spravochnik. M., 1989.

MAVZU: DUNYO AXOLISI VA UNING DINAMIKASI. YER YUZIGA JOYLANISH XUSUSIYATLARI

REJA:

1. Dunyo axolisining o‘sish dinamikasi.
2. Dunyo axolisini joylashuvi va zichligi
3. Axolini hududiy joylashishida sotsial- iqtisodiy va tabiiy omillarning ta’siri

Dunyo axolisining o‘sish dinamikasiga nazar tashlasak, uning sar’ati borgan sari tezlashayotganligini ko‘rish mumkin. Odam paydo bo‘lgan paytlarda uning o‘sish sur’ati past bo‘lgan. Olimlarning hisob-kitoblariga ko‘ra, ming yilda aholi 2 foizga ko‘paygan. Vaqt o‘tishi bilan axolining o‘sish sur’atlari tezlashib borgan. Eramizning boshlarida er shari aholisi 300 mln kishi bo‘lan bo‘lsa, 1650 yilga kelganda bu raqam 2 barobarga ko‘paygan.

19-Asrning o‘rtalarida er shari aholisi 1 mlrd kishiga etdi. Axolining ikkinchi mlrd kishining qo‘shilishi uchun 80 yil, uchinchi mlrd kishining qo‘shilishi uchun 30 yil, to‘rtinchi mlrd kishining qo‘shilishi uchun esa 15 yil kifoyadir. Bu holat dunyo axolisi o‘sish sur’atlarini 1976 yilga qadar juda yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Biroq lning barcha qismlarida bu ko‘rsatkichldar bir xil bo‘lmagan. Osiyo va Lotin Amerikasida o‘sish darajasi hozirgi kunga qadar yuqori sur’atlarda saqlanib qolmoqda. Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida esa axolining o‘sish sur’atini anchagina pastlab qolganini kuzatish mumkin.

Axolining o‘sish sur’atlarini dunyoning turli regionlarida turlicha bo‘lishiga har xil sabablar ta’sir ko‘rsatadi. Ular orasida sog‘likni saqlash

tizimi, qishloq xo‘jaligini rivojlanishi, oziq-ovqat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarning roli alohida ahamiyatga ega.

Dunyo axolisining madaniy saviyasini ortib borishi bilan o‘z-o‘zidan tabiiy ko‘payish jarayoni ham pastlab bormoqda.

Shunday qilib, dunyo axolisining o‘sish dinamikasi ko‘plab va xilma xil omillar ta’sirida bo‘ladi.

Keyingi 20-30 yil ichidagi o‘sish esa, ko‘proq tabiiy o‘sishdagi hududiy farqlar bilan bog‘liq. Ana shu davrga xos bo‘lgan “demografik” ta’sirini ham aniq ko‘rish mumkin.

Xo‘sh kelajakda dunyo axolisining o‘sishi qanday bo‘ladi? Demograf olimlar fikricha, hozirgi davr axolining maksimal o‘sish davridir. Hozirgi kunda oilada tug‘ilishni tartibga solib turiladigan mamlakatlarda planetamiz aholisining 30 % yashamoqda. Kelajakda dunyoning boshqa qismlarida ham aholi bilim va madaniyat darajasining oshib borishi bilan tug‘ilish ham kamaya boradi.

Professor V.TS.Urlanis fikricha, taxminan 21-asrning boshlarida bu jarayon planetamizning barcha axolisini qamrab oladi. Olimning taxminicha, 20-asrning qolgan yillarida tug‘ilishni tartibga solish keng yoyilgan mamlakatlarda Amerika Yaponiya axolisining o‘sish sur’ati 0,9 % dan yuqori bo‘lmaydi.

Dunyo axolisining o‘sishi va bu o‘sishning sur’atlari yuqoridja aytilganidek davom etsa, 21-asr o‘rtalariga borganda, dunyo axolisi 8 mlrd kishiga, 21-asr oxirlarida esa 11-12 mlrd kishiga etadi.

BMT ekspertlari xisobiga ko‘ra 2000 yilda dunyo axolisi 6 mlrd 280 mln kishi, shu jumladan Osiyo aholisi 3870 mln, Lotin Amerikasi axolisi 595, horijiy evropa axolisi 570, Afrika axolisi, 520, Astraliya va Okeaniya axolisi 30 mln kishi bo‘ladi.

Umuman dunyo axolisining o‘sish sur’atlari kelajakda pasayib boradi. Be tendentsiya hoziroq sezila boshladi, ma’lum bir davrga kelib esa, planetamiz axolisining soni staillashadi.

Axolining territorial joylanishi - er yuzining kishilar tomonidan o‘zlashtirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan juda uzoq tarixiy arayonning natijasidir.

Yer sharining turli qismlarida, turli mamlakatlarda axolining territorial jolanishi va zichligi tarixiy sotsial-iqtisodiy va tabiiy faktorlar ta’sirida vujudga keladi.

Bu asosiy faktor dunyoning turli qismlarida ham territorial va ham vaqt nqtai nazardan bir xil emasligi va hech qachon bunday bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan ma’lum.

Yer sharining axolining territorial joylanishi va zichligida bir qancha katta farqlar bor, ular uzoq tarixiy davrda va xilma-xil faktorlar ta’sirida vujudga keladi. Bulardan eng asosiylari tarixiy, tabiiy va boshqa faktorlardir.

Axoli zichligiga xo‘jalikning ta’siri kata, albatta. Jumladan, buni yuqoridagi qisqacha obzordan ko‘rish mumkin. Axoli qancha zich bo‘lsa, xo‘jalik shuncha taraqqiy etgan degan xato fikrni olg‘a surgan edilar.

Bu fikr butunlay noto‘g‘ri ekanligini shundan bilsa ham bo‘ladiki, eng rivojlangan AQShda axoli rivojlanayotgan ko‘pgina qoloq mamlakatlardagidan ko‘ra siyrak.

Shunday qilib, olimlarning axoli zichligining ortib borishi, jamiyat taraqqiyotiga xal qiluvchi ta’sir ko‘rsatadi degan fikrlari butunlay asosssizdir.

Aksincha axolining takror barpo qilinishi axoli sonining ko‘payib borishini ijtimoiy taraqqiyotning muhim shart-sharoiti deb hisoblaydi. Axoli sonining ko‘paya borishi ishlab chiqarishni kengaytirish, uni taraqqiyo ettirish uchun muhim ahamiyatga ega. Axoli soni haddan tashqari kam bo‘lganda ijtimoiy ishlab chiqarishning taraqqiyoti susayishi rayonlarda va davlatlarning rivojlanishiga salbiy ta’sir ketishi mumkin.

Tayanch iboralar

Dinamika, o‘sish sur’atlari, region, omillar, faktor, territorial, hududiy, demografiya, olimlar, madaniyat darajasi, ekspert, sotsial iqtisodiy, tabiiy faktor, kontinental, areal.

Nazorat savollari

1. 19-Asr o‘rtalarida er shari axolisining o‘sish sur’atlari.
2. Axolining o‘sish sur’atlariga ta’sir etuvchi omillar
3. Axolining hududiy joylanishida tarixiy, sotsial iqtisodiy va tabiiy omillar ta’iri.
4. Axolining o‘sish dinamikasi nima?
5. Dunyo axolisini joylashuvi haqida tushuncha bering.
6. Axolini hududiy joylashishida sotsial- iqtisodiy va tabiiy omillarning ta’siri
7. Demografiya so‘ziga qanday ta’rif beriladi?
8. Qaysi davlatlarda o‘sish sur’atlari juda ham past?
9. O‘sish sur’atlari o‘ta yuqori bo‘lgan dalatlarga misollar ayting.
10. O‘zbekiston hududida axoli ko‘payishi qay darajada?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. V.P.Mayakovskiy tahriri ostida. T., 1995.

MAVZU: MEHNAT RESURSLARI VA ULARNING TARKIBI.

REJA:

1. Mehnat resurslari haqida tushuncha
2. Iqtisodiy faol axoli
3. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari.

Odatda aholining mehnat faoliyatiga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi.

1. Mehnat Yoshigacha - bolalar va o‘smirlar
2. Mehnat Yoshidagi - mamlakatning asosiy mehnat resurslari
3. Mehnat Yoshidan o‘tgan axoi.

Mehnat resurslariing soni turli mamlakatlarda turlicha, Chunki, axolining yurldik jihatdan belgilab qo‘yilgan va mehnat resurslariga kiritiladigan Yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada,odatda, 15 Yoshdan 65 Yoshgacha bo‘lganlar mexnatga yaroqliaxolixisoblanadi.

Mexnat resurslari ishlab chiqadi zvyenosida asosiy vazifani bajargaligi tufayli bu soxani o‘rganish iqtisodiy gyeografiya zimmasidadir. xozirgi iqtsodiy Tushunchalar bo‘yicha 16 Yoshdan 59 Yoshgacha erkaklar, 16 Yoshdan 54 Yoshgacha bo‘lgan xotin-qilar mehnat Yoshidagi axoli sanaladi va mamlakatni asosiy mexnat resurslari xisoblanadi.Bu Yoshdagi axolining xammasi xam ishlaydi deb bo‘lmaydi, albatta. Masalan, ishlab chiqarishdan ajralgan xolda o‘qiyotganlar va salomatligi yomonligi tufayli ishlay olmaydigan invalidlar va h.k. lar shular jmlasidandir. Aksincha pensiya Yoshidan oshib ketgan keksalar va shuningdek, hali 16 Yoshga to‘lmagan ba’zi o‘smirlar ham ijtimoiy ishlab chiqarishga ishtirok etadi. Bu mehnatga qobiliyatli aholi tushunchasini kiritishni taqozo qiladi. Mehnatga qobiliyatli aholi deganda har qanday mamlakatning Yoshidan qat’iy nazar real mehnat resurslari tushuniladi. Bu mehnat resurslari soniga bevosita ta’sir qiladi. Ishchi kuchidan foydalanish muammolarini yanada ratsional hal qilish maqsadida mehnatga qobiliyatli axolini ijtimoiy mehnat bilan bandlik darajasi va haraktrini hisobga olish xalq xo‘jaligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda umuman mamlakatimiz bo‘yicha va alohida iqtisodiy rayonlar, shaharlar bo‘yicha ishchi kuchidan oqilona foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakat alohida iqtisodiy rayon shahar axolisi tarkibidagi ishga qobiliyatli axoli sonini axolining tabiiy o‘sish darajasiga jins -Yosh strukturasiga mehnat harakati ko‘rsatkichiga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi. Mehnatga qobiliyatli axoli soni Farg‘ona vodiysi shahar aholisining

yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Bu erda bu ko‘rsatkich O‘zbekistondagi ishga qobiliyatli shahar aholisining salmog‘idan sobiq Ittifoqdagi barcha mehnatga qobiliyatli axolining umumiy axoli tarkibidagi salmog‘ini belgilaydigan umumittifoq ko‘rsatkichidan ancha kamdir. Vodiydagi mehnatga qobiliyatli shahar ahoolisi salmog‘ining kamligi bu erda axoli sonining tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari ancha yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa axolining umumiy sonida bolalar va o‘smirlar salmog‘ining ko‘pligiga olib keladi va mehnatga qobiliyatli axolining salmog‘iga bevosita ta’sir qo‘llaniladi. Shunday qilib vodiydagi biz so‘z yuritgan Yosh strukturasi 16 Yoshgacha bolalardan iborat anchagina mehnat resurslari rezervi va axolining yangi-yangi kontingentini ijtimoiy ishlab chiqarishga doimo jalb qilib turish imkoniyati mavjudligi nuqtai nazardan umuman qulaylik tug‘diradi. Butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham mehnat resurslarining o‘sish sur’atlari nisbatan yuksakligiga va texnika taraqqiyotining katta muvaffaqiyatlariga qaramay, sanoat va madaniyatning tezlik bilan o‘sishi negizida mehnatga qobiliyatli axolini ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarida band butun axolining 40 % bevosita ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanadi. Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi umumittifoq darajasiga deyarli tengdir.

Mehnat resurslarini unumdorligiga ko‘ra 5 guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

1. 16 Yoshdan -19 Yoshgacha ko‘proq majburiy holdagi mehnat resurslari sifatidagi ishlar namoyon qilinadi.

2. 20 Yoshdan - 29 Yoshgacha. Bu davr mehnat resurslarining Yoshlik davri bo‘lib, asosiy vaqt va kuch mehnatga tayyorlanishga sarflanadi.

3. 30 Yoshdan - 39 Yoshgacha bo‘lgan axoli aktiv mehnat resurslari hisoblanadi.

4. 40 Yoshdan - 49 Yoshgacha bo‘lgan axoli mehnat resurslarini o‘rta daridir. Bu davrda to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakalar ishga solinadi.

5. 50 Yoshdan - 59 Yoshgacha bo‘lgan davr mehnat resurslarining katta davridir. Unumdorlikda pasayish boshlanadi.

Mehnatga yaroqli axoli o‘z navbatida 2 guruhga bo‘linadi: iqtisodiy aktiv axoli va iqtisodiy aktiv bo‘lmagan axoli.

Mehnat resurslarini geografik jihatdan o‘rganish mamlakatlar va rayonlar axolisining hududiy joylanish uning Yosh tarkibini o‘rganish bilan birga mehnatga yaroqli aholining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvdagi fikrlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish xususiyatlarini o‘rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiqot qilishning muhim tomonlaridan biridir.

Tayanch iboralar

Ma’naviy, mehnat resurslari, yuridik soha, ijtimoiy, struktura, oqilona foydalanish, ittifoq, rezerv, kontingent, sur’at, ekspluatatsiya.

Nazorat savollari

1. Axolining mehnat faoliyati va bandlik darajasi.
2. Mehnat Yoshidagi axoli.
3. Mehnat resurslarini tarkibi va o‘sish sur’ati.
4. Mehnat resurslari haqida tushuncha bering.
5. Iqtisodiy faol axoli deganda nimani tushunasiz?
6. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari.
7. Necha Yoshda yigitlar ishga yaroqli hisoblanadi?
8. Necha Yoshdan pensiya belgilanadi va uning o‘ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.
9. Aktiv mehnat resurslari necha Yoshdagi kishilarni o‘z ichiga oladi?
10. O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslarini axoliga taqsimlash qanday tartibda olib boriladi?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Se.izd. pererab. i dop. M., 1986.

MAVZU: AXOLINING YOSH VA JINSIY TARKIBI.

REJA:

1. Jinslar takribi: erkaklar bilan xotinlar nisbati.
2. Yoshlar bo‘yicha tarkibi: mehnat resurslariiga ta’siri
3. Aholining iqtisodiy faolligi.

1. Jins tarkibi: erkaklar bilan xotinlar nisbati.

Tabiatda erkaklar bilan ayollar bir xil miqdorda tug‘ilmaydi. Aslida 100 ta qizbola tug‘ilganda taxminan 104-107 ta o‘g‘il bola tug‘ilsa ha lekin 15 Yoshgacha etganda ikkala jinsdagi bolalr soni tenglashadi. Lekin axolining bundan keyingi Yoshlar bo‘yicha guruhlarida axolining jins tarkibi turli mamlakatlarda turlicha tarkib topadi. Dunyodagi mamlakatlarning taxminan yarmida ayollar soni erkaklardan ortiq. Bunga sabab shuki,

ayollarning o‘rtacha umri erkaklarnikiga qaraganda biroz ortiq bo‘ladi. Ba’zi bir mamlakatlarda ayolarning erkaklar soniga qaraganda ancha ko‘pligiga bu mamlakatlarda ikkinchi jahon urushida erkaklarning ko‘plab qirilganligi sababdir. Lekin hayotga yangi Yosh avlodlarning kirib kelishi bilan aholi sonidagi bu farqlar asta-sekin kamayib boryapti. Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mavqei tarixdan noqulay bo‘lgan, erta turmush qurish, qashshoqlik va kasallik sharoitida erta va ko‘p bola ko‘rish mamlakatlarda erkaklar soni ayollar sonidan ortiq. Butun jahon aholisi jinslari nisbatiga Hitoy bilan Hindistondagi erkaklarning ayollardan ancha ko‘pligi ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to‘g‘ri keladi. Yoshlar bo‘yicha tarkibi: mehnat resurslariiga ta’siri. Qadimgi yunon matematigi va faylasufi Pifagor inson hayotini yoil fasllariga qiyoslab, inson umrida to‘rt faslni bahor bolalik, yoz Yoshlik, kuz etuklik, va qish qarilikni farq qilishni taklif qiladi.

Mamlakat hududini mazkur fasllardan biriga kiritish birinchi galda tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Shu sababli aholining Yoshlar bo‘icha asoiy turlari umuman olganda uning ko‘payishi turiga bog‘liqdir. Axolining Yoshlar bo‘yicha va jinsiy tarkibini taxlil qilish uchun maxsu diagramma turi - axolining Yoshlar bo‘yicha va jins tarkibi piramidasi qo‘llaniladi. Axolining asosi inson qismi mehnat resurslarini aniqlashda uning Yoshi mezon bo‘ladi. Axolining iqtisodiy faolligini mehnat resurslarining ishlab chiqarishda jalb qilinganlik darajasini ko‘rsatadi.

Butun dunyo aholisining 45 % yoki 2 mlrd dan ortiqroq qismi iqtisodiy faol axoli hisoblanadi. Rossiyada, xorijiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida axolining ish bilan bandligi juda yuqori bo‘lgani holda faol axoli ko‘rsatkichi 48-50% umujahon ko‘rsatkichidan ancha yuqori. Osiyo, Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich jahondagi o‘rtacha past 35-40 %. Bunga bu mamlakatlarning umumiy iqtisodiy qoloqligi, millionlab sonida Yosh bolalar salmog‘ining juda katta ekanligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ancha kam jalb qilinganligi sababdir.

Shahar va qishloq aholilarini qiyos qilamiz. Shahar axolisi shaharlar mavqeini o‘sishi. Siz tarix fanlaridan o‘qib bilib olganingizdek, shaarlar juda qadimgi zamonda ma’muriy hokimiyat savdo va hunarmandchilik markazlari, harbiy qo‘rg‘onlar sifatida Nil, Dajla va Furot daryolari deltalarida paydo bo‘lgan. Kapitalizmning rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o‘sishi bilan shaharlarda sanoat to‘plandi, ko‘p shaharlar transport tushunlariga, savdo-taqsimot markazlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma’muriy va madniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 19-Asr o‘rtalarida nomoddiy ishlab chiqarish sohalarining o‘sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada ko‘paydi. Hozirgi zamon shahar odatda bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud.

Shahar deb, mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar axolisi salmog‘ining oshshiga, murakkab shaharlar shahobchalari, tizimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o‘sish jarayonidan, jamiyatning axoli mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko‘proq shaharlarga xos bo‘lib, o‘zgarib boishidan iboratdir. Urbanizatsiya sotsial - iqtisodiy traqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo‘lib, ko‘pchilik mamlakatlariga xos bo‘lgan uchta umumiy xususiyatlarga egadir. Birinchi xususiyat shahar ahosili sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib borish. Qishloq axolisi: qishloq va forma.

Axolining hozirgi vaqtda o‘sish jarayoni, tarkibi joylashishi ko‘pgina murakkab masalalarga xosdir. Jahon ahosilining tez ko‘pyib borayotgani millatlararo munosabatlar, urbanizatsiya masalalari ana shunday muhim muammo masalalaridir.

Tabiatda erkaklar bilan ayollar bir xil miqdorda tug‘ilmaydi. Aslida har 100 ta qiz bola tug‘ilganda 104-107 o‘g‘il bola tug‘iladi. Lekin bu ikkala jins 13 Yoshgacha borganda tabiiy ravishda soni tenglashadi. Ammo axolining bundan keyingi Yoshlar bo‘yicha guruhlardagi axolining jins tarkibi turli mamlakatlarda turlicha tarkib topadi.

Dunyodagi mamlakatlarning taxminan yarmida ayollar soni erkaklar sonidan ortiq. Bunga sabab shuki, ayollarning o‘rtacha umri erkaklarnikidan biroz ortiq bo‘ladi. Ba’zi bir mamlakatlarda erkaklarning ikkinchi jahon urushida ko‘plab qirilganligidir. Lekin hayotga yangi avlodning kirib kelishi bilan aholi sonidagi bu farqlar asta-sekin kamayib boryapti.

Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mavqei tarixdan noqulay bo‘lgan, erta turmush qurish, qashshoqlik va kasallik sharoitida erta va ko‘p bola ko‘rish mamlakatlarda erkaklar soni ayollar sonidan ortiq. Butun jahon aholisi jinslari nisbatiga Hitoy bilan Hindistondagi erkaklarning ayollardan ancha ko‘pligi ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to‘g‘ri keladi.

Hozirgi vaqtda axolining miqdorigina emas, balki uning sifati ham katta ahamiyat kasb etadi. Axolining sifati tushunchasi turmush va ovqatlanish sharoitini, sog‘ligini, yangiliklarni qabul qilib olish malakasini o‘z ichiga oladi. Savodxonlik, umumiy va maxsus bilim darajasi ham aholi sifati tushunchasinig muhim belgilaridan biridir.

Tayanch iboralar

faol, diagramma, resurslar, daraja, qiyos, ma’muriy, urbanizatsiya, sotsial, atrof-muhit, millatlararo munosabat, agromelioratsiya, malaka.

Nazorat savollari

1. Axolining Yosh va jins tarkibini o‘rganishning ahamiyati
2. Axolining jins tarkibi va undagi farqlar
3. Axolining Yosh tarkibi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar
4. O‘zbekistonda yashayotgan erkaklar bilan xotinlar nisbati qanday?
5. Yoshlar bo‘yicha tarkibi: mehnat resurslariiga ta’siri.
6. Aholining iqtisodiy faolligi deganda nimani tushunasiz?
7. Qaysi davlatlarda ayollar erkaklarga nisbatan yuqori ko‘rsatkichga ega va nima uchun?
8. Qaysi davlatlarda ayollar past ko‘rsatkichga ega?
9. Axoli soni kamayib borayotgan davlatlar va buning oqibatlari.
10. Axoli sonining keskin ortib ketishining salbiy oqibatlari.

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Mins L.L. singan o‘simlik qoplami - yoyi: etnokrafik hikoyalar. M., 1991 (rus tilida).

MAVZU: AXOLINING ETNIK MILLIY VA IRQIY TARKIBI.

REJA:

1. Axolini etnik tarkibi: murakkab muammolar
2. Dunyo regionlarida millatlararo munosabatlar
3. Rivojlanayotgan mamlakatlarda etnik va milliy munosabatlar
4. Irqiy birikmalar nima?
5. Irqlarni kelib chiqishi va tarqalishi
6. Asosiy katta irqlar va dunyo axolisi.

Etnografiya mamlakatlar va rayonlar axolisining etnik tarkibi xalqlarning etnik tarkibi xududiy munosabatlarini, turli etnik gurular ilgarigi davrlarda va hozirgi davrlarda va hozirgi hududiy yashash formalarini o‘rganadi. Har bir millatga xos bo‘lgan moddiy va ma’naviy madaniyatning harakterli xususiyatlari, etnik umumiyliklarning tashkil topishi uzoq va murakkab jarayondir. Bu xususiyatlar har bir xalqning xo‘jalik yuritish metodlari va yo‘llari, tabiiy tarixiy hamda sotsial iqtisodiy sharoitlar ta’sirida vujudga keladi. Turli xalqlarning mehnat malakasini o‘rganish, undan foydalanish esa ishlab chiqarish uchun muhim ahamiyatga ega. Etnografiya xalqlarning kelib chiqishi va hozirgi zamon etnik jarayonlarini o‘rganish va

kuzatadi. Turli irq va millatlarga mansub bo‘lgan xalqlarning aralashuvidan o‘ziga xos guruhlar, aralash irqiy tiplar vujudga kelganligini ko‘rish mumkin. Axolini etnik sostavini bilish juda juda ko‘p demografik jarayonlarni to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Masalan, O‘zbekistonda axolini takror barpo qilish 30-33 bo‘lib tabiiy o‘sish asosan mahalliy millat hisobiga ro‘y bermoqda. Axoli milliy tarkibi, milliy munosabatlarning ishlab chiqarishga ta’siri iqtisodiy geografiyada muhim ahamiyatga ega. Aholini hududiy joylanishi bir-biri bilan aralashuvi geografiyada muhim ahamiyatga ega.

Dunyo aholisi juda ko‘p etnik birikmalardan tarkib topgan. Ko‘pgina mayda qabilalar va etnografik guruhlarni xisobga olganda ham planetamizda 2 mingdan ortiq turli xalqlar yashaydi. Ularni ma’lum xususiyatlariga qarab klassifikatsiyalash mumkin.

1. Xalqlarning soniga qarab
2. Lingvistik klassifikatsiyalash
3. Geografik tarqalishiga ko‘ra klassifikatsiyalash xalqlarni soniga ko‘ra quyidagicha klassifikatsiya qilish mumkin.

1. Axolisi 100 mln kishidan ko‘p bo‘lgan xalqlar: xitoylar, inglizlar, ruslar, yaponlar, braziliyaliklar, bengallar, induslar.

2. Axolisi bir mln dan ko‘p bo‘lgan 257 xalq

3. Axolisi ming kishidan ko‘p bo‘lgan 531 xalq.

Lingvistik klassifikatsiyalash xaqlarni tiliga qarab guruhlarga ajratish bir-biriga yaqin bo‘lgan qardosh tillar oilalarga birlashtiriladi, ular esa o‘z navbatida guruhlarga ajratiladi. Lingvistik klassifikatsiya bilan tillar klassifikatsiyasi boshqa-boshqa narsa. Dunyo xalqlari lingvistik klassifikatsiyasi quyidagicha.

1. Hind-Yevropa oilasi - Yevropaning katta qismi, shimoliy va janubiy Amerika, shim. Hindiston, Eron xalqlari.
2. Kavkaz oilasi - asosan Zakavkaze xalklari
3. Ural oilasi - Yevropaning ba’zi mamlakatlari, MDHni Yevropa qismi va Sibirning ayrim rayonlari.
4. Olton oilasi (turk, mongol va tungum) guruhlari bilan
5. Hitoy - tibet oilasi Sharqiy va Janubiy Sharqiy Osiyo xalqlari
6. Malayya-Polineziya oilasi - Tinch va Hind okeani orollari xalklari
7. Dravid oilasi - janubiy Hindiston xalqlari
8. Mon-kxmer oilasi - hindixitoy oilasi

semit - xamit oilasi janubiy g‘arbiy Osiyo, shimoliy Afrika xalqlari.

10. Bantu oilasi - janubiy Afrika tub xalqlari

Hududiy geografik printsipga ko‘ra ma’lum oblastlarda tarixiy etnografik hududlar ajratiladi. Bu hudud ham tabiiy oblastlarga ham tarixiy oblastlarga deyarli mos tushadi. Dunyo bo‘yicha olganda bu printsip bo‘yicha quyidagi regionlarni ajratish mumkin.

1. Shimoliy Amerika. 2. G‘arbiy Yevropa. 3. Janubiy sharqiy Osiyo. 4. Rossiya. 5. Afrika. 6. Avstraliya va Okeaniya. 7. Markaziy va Lotin Amerikasi.

Sobiq Ittifoqda yashovchi xalqlarni quyidagi 4 ta guruhga bo‘lish mumkin.

1. Yevropa qismi
2. Kavkaz qismi
3. O‘rta Osiyo va Qozog‘iston

4. Sibir va Uzoq Sharq xalqlari.

Xalqlar klassifikatsiyasi turlari orasida eng muhimi keng tarqalgani Lingvistik klassifikatsiyasidir. Bu klassifikatsiyaga binoan dunyo xalqlari kartasiga nazar tashlasak, axolisi eng ko‘p va zich joylashgan hudud - Osiyo materigining sharqi va janubiy sharqida ekanini ko‘ramiz. Bu dunyo axolisining 1/5 qismini tashkil etadi.

Dunyo aholisining irqiy tarkibi.

Odamlar qadimdan jamoa bo‘lib, qon-qarindosh bo‘lib yashab kelganlar. Ana shunday birikmalarning eng muhimlari ularning irqiy va etnik birikmalaridir. Irq bu odamlarning kelib chiqishi gavda tuzilishi va qiyofasi o‘xshash bo‘lgan tarixan tarkib topgan hududiy birligidir.

Irqlarning paydo bo‘lishi va odamlar o‘rtasidagi irqiy belgilar hamda xususiyatlarini kelib chiqishi haqida har xil fikrlar bo‘lib keng tarqalganlari ikkitadir. Antropologlarning bir qismi irqlar juda qadim Afrika, Yevropa va Osiyoning bir necha markazlarida vujudga kela boshlagan deb hisoblaydilar. Bu litsentrizm nazariyasidir.

Ikkinchi guruh olimlari hozirgi zamon kishisi bir markazda vujudga kelgan keyinchalik odamlar dunyoning turli qismmlariga tarqalib ketgan. Natijada tabiiy sharoiti bir-biridan keskin farq qiluvchi tabiiy sharoitga tushib qolishi natijasida hozirgi irqiy belgilar vujudga kelib rivojlanib borgan degan g‘oyani ilgari suradilar.

Irqlar xalqlarning asosan tashqi ko‘rinishiga va undagi farqlarga hamda ba’zi fiziologik belgilarga qarab ajratiladi. Kishi terisini ko‘z va sochining rangi, yuz tuzilishi, bosh suyagining shakli, burun va laboratoriya tuzilishi ko‘zlarining qisiq keng bo‘lishi erkaklarning yuzi va tanasida uning uzun qisqaligi hamda keyingi paytlarda e’tibor berilayotgan ichki belgi va xususiyatlar tish tuzilishi va boshqalar kiradi. Yer sharida uchta katta irq: evropoid, mongoloid va ekvatorial hamda ko‘plab aralashirqiy formalar ajratiladi. Turli irqlar o‘rtasidagi farqlar qanchalik aniq bo‘lmasin irqdan qat’iy naar hozirgi zamon kishilari o‘rtasidagi morfologik, fiziologik va psixologik o‘xshashliklar mavjud farqlardan bir necha marta ko‘p va chuqurroqdir, tarixiy farqlar va tajribalar shuni ko‘rsatdiki, yashayotgan

sotsial- iqtisodiy sharoit, tarbiya va boshqa sharoitlar bir xil bo‘lganda har xil irqqa mansub kishilarning aqliy qobiliyati bir-biridan farq qilmaydi.

Uchta irq dunyoning barcha aholisini qamrab ololmaydi. Asosiy katta irqlarga yaqin hududlarda har turli irqiy belgilarga ega bo‘lgan xalqlar qadimdan yashab kelishgan. Keyingi davrlarda irqlararo nikohning ko‘payishi natijasida turli irqlar o‘rtasidagi aralash irqlar ham ko‘payib bormoqda.

Yevropoid irqi dunyo axosilining 46,8 % ni o‘z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: tana terisi oq yoki qoracharoq bo‘ladi. Sochlari to‘lqinsimon yoki to‘g‘ri, ba’zan o‘rtacha bo‘ladi. Burinlari kichik, tor, lablari yupqa va h.k. bu katta irq ikki guruhga - shimoliy va janubiy guruhlarga bo‘linadi.

Mongoloid irqi dunyo aholisining taxminan 35,9 % ni tashkil etadi. Asosiy irqiy belgilari: tanasi och sariq yoki och qo‘ng‘ir rangli, sochlari to‘g‘ri va qatiq, erkaklarining ko‘zlari qisiq va suyagi chiqqanroq bo‘ladi. Mongoloid irqi ham ikki guruhga bo‘linadi. Osiyo va Amerika guruhlari.

Ekvatorial irqi dunyo aholisining 5,8 % ni o‘z ichiga oladi. Asosiy irqiy belgilari: terisi qora, sochlari qora, jingalak, burni keng, lablari qalin. Ekvatorial irqi ham ikki tarmoqqa ajraladi: Afrika va Okeaniya tarmoqlari.

Aralash irqiy formalari. Qadimgi aralash irqiy forma yoki tiplariga efiop tipi kiradi. Ularning ko‘p belgilari arablarga o‘xshaydi. Ammo ular negroidlar singari qora tanli. Shuningdek, g‘arbiy Afrika hududida yashovchi fulbe xalqlari ham aralash tiplarni tashkil qiladi. Ularning g‘arbiy Sudanning oraliq formalari deb atashadi. Hindistonning janubida evropoid va ekvatorial irqlarning okeaniya avlodi o‘rtasidagi oraliq irqiy belgilarga ega bo‘lgan xalqlar yashaydi. Janubiy sharqiy Osiyoda mongoloid irqining Osiyo alodi bilan ekvatorial irqning Okeaniya avlodi rtasidago‘i aralash tip vakillari yashaydi. Sharqiy mongoloidlarga nisbatan ularning rangi qoramtir, labi qalinroq, bo‘yi pastroq bo‘ladi.

Aralash irqiy formalarning ikkinchi katta guruhi o‘rta asrlar va yangi asr aralash formalaridir. Bunday aralash formalar tarqalgan hudulardan biri O‘rta Osiyo respublikalaridir. Bu erdagi qadimgi tuproqshunoslik evropoid axoli xalqlarining buyuk ko‘chish davrida Markaziy Osiyodan kelgan mongoloid irqi bilan aralashib ketgan. Ana shu aralashishi natijasida aralash irqiy formalari ikki guruhga bo‘lingan.

Birinchi tip turon tipi yoki janubiy Sibir tipi - bu tipga asosan mongoloid irqi belgilari ko‘proq bo‘lgan qozoqlar, qirg‘izlar, qoraqalpoqlar kiradi. Ikkinchi tip O‘rta Osiyo tipi. Bularda evropoid irqining janubyuiy avlodiga xos belgilar saqlangan. O‘rta asrlar va yangi davr irqiy formalari boshqa qit’alarda ham uchraydi.

Umuman dunyodagi uchta asosiy katta irq orasida juda ko‘plab boshqa aralash forma va tiplar vujudga kelgan, yana bu jarayon davom etib kelmoqda. Bu esa barcha irfqlarning biologik jihatdan bir ekanligini

isbotlaydi. Va bu yana reaktsion irqiy nazariyalarning asossizligini ko‘rsatadigan dalildir.

Tayanch iboralar
Etnik jarayon, etnografiya, jarayonlar, demografiya, klassifikatsiya, irq, antropolog, litsentrizm, monotsentrizm, fiziologiya, qit’a, koryak.

Nazorat savollari
1. Xalqlarning kelib chiqishi va hozirgi zamon etnik jarayonlari.
2. Dunyo axolisining tarkibi va hududiy joylashuvi
3. Xalqlarning klassifikatsiyasi va til guruhlari.
4. Dunyo axolisining irqiy tarkibi.
5. Dunyo regionlarida millatlararo munosabatlar.
6. Rivojlanayotgan mamlakatlarda etnik va milliy munosabatlar
7. Irqiy birikmalar nima?
8. Irqlarni kelib chiqishi va tarqalishi qaysi davrlar bilan bog‘liq?
9. Asosiy katta irqlarga ta’rif va tavsif bering.
10. Dunyo aholisi haqida gapiring.

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. V.P.Mayakovskiy tahriri ostida. T., 1995.
3. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Ye.izd. pererab. i dop. M., 1986.

MAVZU: DUNYO AXOLISINING DINIY TARKIBI.

REJA:

1. Dinlarni tarqalishi va ahamiyati
2. Jahon dinlari
3. Milliy dinlar.

Sayyoramiz aholisi juda ko‘p turli - tuman dinlarga e’tiqod qiladilar. Xozirgi payitda afrikaning tropik o‘rmonlarida, Aazonka xavzasida yashovchi ba’zi xalqlarda alloqachon tugalib ketgan ibtidoiy din formalari 3 xamon saqlanib qolgan. Shuningdek, ba’zi xalqar e’tiqod qiladigan mahalliy va milliy ahamiyatga ega bo‘lgan dinlar ham mavjud.

Din asrlar davomida o‘zgarib borayotgan sharoitga moslashib, kishilarning axloqiga, urf-odatlarigaYu, shaxsiy hayotiga, oiladagi o‘zaro munosabatlarga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Din xususan axolini ko‘payishiga ham ta’sir ko‘rsatib kelgan.

Protestant mazxabidagi xalqlar yashaydigan mamlakatlarda odatda nikoh Yoshi hammdan kech va ajralish esa unchalik murakkab emas. Ba’zi bir katolik mazhabiga mansub mamlakatlarda erkaklarga 14 Yoshda, ayollarga 12 Yoshda nikohga kirish qonun bilan ruxsat etilgan. Katolik uchun nikohni buzish ham 20-30 yil oldingiga nisbatan hozir ancha oson. Ilgari amalda bu man etilgan edi. Musulmon mamlakatlarida nikohga kirish Yoshi juda kichik. Bu mamlakatlarda din erta va majburiy nikohni ko‘p bolalikni ko‘p xotinlikni qo‘llaydi va ko‘p hollarda demografik siyosatga salbiy munosabatda bo‘ladi. Induizm ham erta va majburiy nikohni hamda ko‘kat o‘g‘itlar bolalikni qo‘llaydi. Lekin musulmonchilikdan farq qilib ajralishni va ikkinchi nikohni man etadi. Ilgari Hindistondagi 14 Yoshgacha bo‘lgan qizlar va o‘spirinlarning yarmi oila qurgan bo‘lardi.

Diniy qarama-qarshiliklar ko‘pincha irqiy va milliy ziddiyatlar bilan bog‘lanib, uzoq davom etadigan “qaynoq nuqtalarni” vujudga keltiradi.

Yer shari axolisining ko‘pchilik qismi asosan quyidagi dinlarga e’tiqod qiladi: xristian, Islom, budda. Odatda bu dinlar “dunyo yoinlari” deb ataladi. Jahon dinlaridan eng keng tarqalgani xristian dini bo‘lib, unga asosan Yevropa, Amerika va Avstraliyada yashovchi taxminan 1 mlrd kishi e’tiqod qiladi. E’tiqod qiluvchilar soniga ko‘ra Islom dini ikkinchi o‘rinda turadi. Asosan Afrika va Osiyoda joylashgan deyarli 30 ga yaqin mamlakatda Islom davlat dini deb e’lon qilingan. Markaziy va sharqiy Osiyoda tarqalgan budda dini davlat dini deb e’lon qilingan. U jahon dinlari orasida uchinchi o‘rinda turadi.

Xristianlik eramizning 1-asrining ikkinchi yarmida Rim imperiyasining sharqida paydo bo‘lgan. U o‘rta asrlarda Yevropadagi xalqlarning asosiy diniga aylandi. Xristianlikning dunyoning boshqa qismlariga kirib borishi, ko‘proq buyuk geografik kashfiyotlar davriga tshg‘ri keladi.

Frantsiya, Italiya , Ispaniya, Portugaliya, Irlandiya, Avstriya va Germaniyaning janubiy rayonlari katolik cherkovi ta’sirida. Dinchi polyaklar, chexlar, slovaklar, slovenlar, vengerlar ham katolikka e’tiqod qiladilar.

Dunyoda ikkinchi o‘rinda eng Yosh Islom dini turadi. Bu din 7-asrning boshlarida Arabiston Yarim orolida vujudga kelgan Islom dinini odatda musulmon dini deb yuritiladi. Geografik nuqtai nazardan Islom diniga e’tiqod qiluvchilar nisbatan kompakt joylashgan. Islom dini shimoliy-g‘arbiy va sharqiy Afrikada, arab mamlakatlarida, kichik Osiyoda, Eron, afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh mamlakatlarida hukmron. Kipr axolisining bir qismi ham musulmonlardir.

Islom dini Indoneziyada ham asosiy din hisoblanadi. Bu dinga shuningdek, Fillipin davlatining janubiy qismida yashovchi xalqlar g‘arbiy Hitoydagi uyg‘ur va dunganlar ham e’tiqod qilishadi. Yevropada Istambul va uning atrofidagi usmoniy turklar, albanlar va bosniyaliklar, bolgarlarning bir qismi, lo‘lilarning ko‘pchiligi musulmon hisoblanadi.

Dunyo inlari orasida e’tiqod qiluvchilar soni bo‘yicha ham, geografik tarqalish areali jihatdan ham eng kichigi buda dinidir. Ammo tarixiy nuqtai nazardan eng qadimgi “dunyo dini”dir. Hozir bu dinga Hindiston axolisining bir qismi va tibetliklarning birikmalar qismi dunyo qiladi.

Milliy dinlarga Hindistondagi induizm, Hitoydagi konfutsianlik, Yaponiyadagi sintoizm va boshqalar kiradi. Qadimiy dinlardan bo‘lgan iuadizm ham keng tarqlagan. Bu dinning ko‘p qoidalari xristian dinida qabul qilingan.

Dinning ham salbiy ta’siri bor. Turli xalqlar va millatlarni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo‘yishi, diniy xurofotlar va diniy qarama-qarshilik natijasida hatto qonuniyatlar to‘kishlar, urishlar kelib chiqishi mumkin. Masalan, Falastin va isroil munosabatlarida, Afg‘oniston va Chechenistondagi voqealarda ko‘rish mumkin.

MDH hududida ham xristian dini keng tarqalgan. Xristianlikni pravoslav mazhabi keng tarqalgan. Ruslar, ukrainlar, beloruslar, chuvashlar, moldavanlar, gruzinlar, osetinlar kbilar xristian diniga e’tiqod qiladi. Katolik mazhabiga g‘arbiy ukrainlar, beloruslarning bir qismi, litvalikar, latishlar e’tiqod qiladi.

MDH hududida ikkinchi katta din - Islom dinidir. Bu dinga O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari, shuningdek, sharqiy kavkaz xalqlari, tatarlar, bashqirlar, janubiy Sibirning turkiy tillarida gaplashuvchi xalqlari e’tiqod qilishadi.

Tayanch iboralar

Sayyora, e’tiqod, tropik, ijtimoiy, ibtidoiy, totamizm, magiya, fetishizm, animizm, iudaizm, mazhab, pravoslav, katolik, xurofot, protestant.

Nazorat savollari

1. Dinlarni tarqalishi va ahamiyati
2. Axolining diniy tarkibi nima?
3. Milliy dinlar va tarqalishi deganda nimani tushunasiz?
4. Jahon dinlari haqida gapiring.
5. Dunyodagi mavjud dinlarning mohiyati va mazmuni nimani ifoda etadi?
6. Eng qadimgi dinlar haqida ma’lumot bering.
7. Dunyo axolisi eng ko‘p e’tiqod qiladigan dinlarni sanang.
8. Ko‘p dinlarga e’tiqod qiluvchi davlatlarga misollar keltiring.
9. Islom dini tarqalgan davlatlarni sanab bering.

10. “Avesto” nima?

Adabiyotlar

3. Borisov M. Naseleniya mira. demograficheskiy spravochnik. M., 1989.
1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi. V.P.Mayakovskiy tahriri ostida. T., 1995.
3. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Ye.izd. pererab. i dop. M., 1986.

MAVZU: AXOLINING HUDUDIY TAQSIMLANISHI VA ZICHLIGI.

REJA:

1. Axolining territorial joylanishi
2. Dunyo regionlarida axolining zichlik darajasi
3. Axoli zichligiga xo‘jalikning ta’siri.

Axolining hududiy jolanishi-er yuzining kishilar tomonidan o‘zlashtirilish bilan bog‘liq bo‘lgan juda uzoq tarixiy jarayonning natijasidir.

Yer sharining turli qismlarida, turli mamlakatlarda axolining hududiy joylanishi va zichigi tarixiy, ijtimoiy iqtisodiy va tabiiy omillar natijasida vujudga kelan. Bu asosiy omillar dunyoning turli qismlarida ham hududiy va hamma vaqt nuqtai nazaridan bir xil emasligi va hech qachon bunday bo‘lmasligi o‘z-o‘zidan ma’lum. Shuning uchun ham turli kontinentlarda, turli mamlakatlarda va hatto ularning ayrim qismlarida aholining joylashuvida uning zichligida katta farqlar mavjud.

Odatda axolining hududiy joylashuvini har bir kvadrat km ga to‘g‘ri keladigan aholi soni bilan ko‘rsatiladi. Yer sharida axolining o‘rtacha zichligi har kv.km.ga 40 kishi to‘g‘ri keladi. Ammo dunyoning turli qismlarida axolining o‘rtacha zichligi turlichadir. Dunyoning rayonlarida zichlik juda yuqori.

Sanoat taraqiyotining boshlanishi bilan Yevropa va AQShda yirik aholi to‘plamlari tarkib topdi. Ba’zi bir sanoat rayonlarida aholi zichigi 1km.kv maydonda 1000-1500 kishiga to‘g‘ri keladi.

Saushkin obikor dehqonchilik, tropik dehqonchiligi va ayniqsa sholikorlik rivojlangan rayonlarda aholi juda zich yashashligi haqida ko‘plab misollar keltirib, xulosa chiqaradi.

1. Keyinroq o‘zlashtirilgan va yangidan sug‘orila boshlagan erlardagiga nisbatan qadimdan sug‘orilib kelinayotgan erlarda axoli doimo zichroq.

2. Sug‘oriladigan hududlar orasida sholi ekiladigan rayonlarda axoli ayniqsa zich bo‘ladi. Boshqa g‘ala ekinlari va texnik ekinlari ekiladigan rayonlg‘arda zichlik sholikorlik rayonlaridagiga nisbatan.

Agar dunyo aholisini joylashuvi va zichlik kartasiga nazar tashlasak, axoli eng ko‘p yashaydian areallarni ajratish qiyin emas.

Birinchi navbatda eng katta yirik tshrtta ana shunday areal yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Eng birinchi areal Hindiston yarim orolini, janubiy sharqiy Osiyoni, Hitoy - sharqiy qismini, Koreya yarim orolini va Yaponiyani oladi.

Bu arealning ko‘pchilik qismida zichlik 200 kishiga etadi va undan ham ortadi. Faqat tog‘li rayonlarda zichlik bir muncha past. Bu arealda qator yirik millioner shaharlar va boshqalar mavjud.

Aholi zich joylashgan ikkinchi yirik areal Yevropadir. Skandinaviya yarimorolini va MDH Yevropa shimoliy-sharqiy rayonlarini hisobga olmaganda, Yevropaning qolgan barcha qismining ana shu arealga kiritish mumkin. Bu erda zichlik 50, ko‘p rayonlarda 100 kishidan ortiq, evropada 30 dan ziyod millioner shaharlar bor.

Aholi ko‘p va zich joylashgan uchinchi v to‘rtinchi areallar AQShning Atlantika sohili va nil daryosi quyi oqimi hamda deltasini o‘z ichiga oladi.

Dunyo axolisi zichligi kartasida axoli eng ko‘p va zich joylashgan areallar bilan bir qatorda, deyarli o‘zlashtirilmagan hududlarni ham ko‘rish mumkin. Bunday areallardan ham bir nechta harakterlisini ajratsa bo‘ladi.

Axoli kam yashaydigan ikkinchi yirik areal Saxroi Kabir, uchinchisi Avstraliya cho‘llari, to‘rtinchisi - Gobi Taklamakon cho‘llari, tibet yasi tog‘ligi va uni janubidan o‘rab turgan qudratli tog‘lari, beshinchisi - janubiy Amerika metirigining ikkinchi qismidagi ayrim rayonlardir.

Yer sharidagi axolining hududiy joylashishi va zichligida bir qancha farqlar bo‘lib ular uzoq tarixiy davrda va xilma-xil omillar ta’sirida vujudga kelgan. Bulardan eng asosiylari tarixiy, sotsial iqtisodiy tabiiy va boshqa omillardir.

Tayanch iboralar

Hudud, ijtimoiy, omillar, kontinent, areal, delta, sohil, hudud, arktika, sotsial, iqtisodiy.

Nazorat savollari

1. Axolining territorial joylanishi deganda nimani tushunasiz?

2. Axolini territorial joylanishida va zichligida tarixiy sotsial - iqtisodiy va tabiiy omillarning ta’siri.
3. Dunyo regionlarida axoli zichlik darajasi.
4. Axoli zich va kam yashaydigan areallar haqida gapiring.
5. Axoli zichligiga xo‘jalikning qanday ta’siri bo‘ladi?
6. Qaysi dalatlarda aholi juda ham zich joylashgan?
7. O‘zbekiston aholisi jon boshiga necha ga er maydoni to‘g‘ri keladi?
8. Aholi o‘ta siyrak bo‘lgan hdudlar haqida gapiring.
9. Hitoy va Hindiston hududlarida aholi ortib borish darajasini aniqlang va kishi boshiga to‘g‘ri keladigan ga maydon qancha teng ekanligini hisoblang.
10. O‘zbekistonning qaysi hududlarida aholi siyrak joylashgan va nima uchun?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Ye.izd. pererab. i dop. M., 1986.
3. Borisov M. Naseleniya mira. demograficheskiy spravochnik. M., 1989.

MAVZU: SHAHAR VA QISHLOQ AHOLISI.

REJA:

1. Shahar axolisi - shaharlar mavqeining o‘sishi.
2. Urbanizatsiya haqida tushuncha
3. Qishloq axolisi: qishloq va ferma.

Shaharlar juda qadimgi zamonda ma’muriy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik markazi, harbiy qo‘rg‘onlar sifatida Nil, Dajla, Furaot daryolari deltalarida paydo bo‘lgan. Kapitalizmni rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o‘sishi bilan shaharlarda sanoat to‘plandi. Ko‘p shaharlar transport tugunlariga, savdo taqsimot tuunlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma’muriy va madaniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 20-Asr o‘zrtalarida nomoddiy sohalarning o‘sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon shahari bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud. Masalan, tog‘-kon sanoti shahari ilmiy shahar, kurort shahari va xhatto poytaxt shaharlari ham qurilgan. Ba’zi shaharlar poytaxt qilish uchun maxsus qurilgan.

Urbanizatsiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya deb mamlakatda, hudud va

jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar axolisini salmog‘i ortishi, murakkab shaharchalar shaxobchalari, tizimlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya, jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o‘sish jarayongidan, jamiyatning axoli mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko‘proq shaharlarga xos bo‘lib o‘zgarib borishidan iboratdir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo‘lib ko‘pchilik mamlakatlarga xos bo‘lgan uchta umumiy xususiyatga ega.

Birinchi xususiyat - shahar axolisi sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib borishi. Masalan, 1900 yilda jahon axosilining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo‘lsa, 1950 yilda 29 % ga, 1990 yilda 45 % ga etdi. O‘rta hisobda olganda shaharlar aholisi har yili 50 mln kishiga ko‘payib bormoqda.

Axolishunoslarning fikriga ko‘ra, 2000 yilga kelib, shahar axolisi jahon axolisining yarmidan oshib ketdi.

Ikkinchi xususiyat - axoli va xo‘jalikning asosan yirik shaharlarda to‘planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta’lim bilan aloqasining murakkablashib borayotgani sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari katta shaharlar kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini odatda to‘liqroq qondiradi.

Hozir jahonning eng yirik shaharlari Mexiko, Tokio, Nyu-York, Pekin, Shanxay kabilardir. Bu shaharlardan mexikoda 20 mln kishidan ortiq kishi, qolganlarida 10-20 mln kishi yashaydi.

1950-2000 yillarda shahar axolisi sonining o‘sishi.

Dunyo regionlari va butun jahon	1950	1960	1970	1980	1990	2000
MDH	70	104	137	166	193	222
davlatlari	217	256	302	341	363	477
horijiy	229	362	517	733	494	1412
Yevropa	33	51	81	136	220	346
horijiy Osiyo	106	139	167	191	210	240
Afrika	67	106	163	238	323	465
shim. Amerika						
lotin Amerikasi						

Uchinchi xususiyat - shaharlar maydonini kengayib ketishi. Hozirgi zamon shaharlashishi uchun shaharlarning oddiy bir o‘zakli shaklidan shaharlar va qishloqlar tutashib ketib, shaharlar guruhi, shaharlar “uyumi” shakliga, ya’ni shaharlar agromeratsiyasi shakliga o‘tish xosdir.

Urbanizatsiya butun jahon jarayoni sifatida umumiy xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birg turli mamlakatlar va hududlarda o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar urbanizatsiyaning har xil darajada ekanligida va sar’atida aks etadi.

Urbanizatsiya darajasi ancha past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlashish eniga o‘smoqda, shahar axolisi tez ko‘payib bormoqda. Shaharlar axolisining yillik o‘sishi 4/5 qismi rivojlanayotgn mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Shaharliklarning mutloq soni esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagidan anchagina oshib ketdi. Ilm fanda shahar portlashi deb nom olgan bu hodisa rivojlanayotgan mamlakatlarning butun sotsial - iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Shaharlarning tez o‘sayotganligiga qaramay jahon aholisining yarmidan ortig‘i qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning umumiy soni esa 15-20 mln ga etadi. Qishloq axolisini joylanishida asosan ikki usul mavjud: g‘uj va tarqoq joylashish.

Qishloqlarning mavjudligi tarixiy, iqtisodiy rivojlanishga tabiiy sharoitning xususiyatlariga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda urbanizatsiya atrof muhitning o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Katta shaharlar va aglomeratsiyalar ifloslikning deyarli asosiy manbai bo‘lib, atrof-muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi o‘rinda atmosfera havosini ifloslanishi kuzatiladi.

Asosiy xulosa. Axolining hozirgi vaqtdagi o‘sish jarayoni, tarkibi va joylashish ko‘pgina masalalrni tug‘diradi. Bu masalalarning ba’zilari butun jahonga xos bo‘lsa, ayrimlari turli toifadagi mamlakatlarga xosdir. Jahon axolisining tez ko‘payib borayotgani millatlararo munosabatlar, urbanizatsiya masalalari ana shunday muhim muammo masalalardir.

Tayanch iboralar

Urbanizatsiya, sur’at, daraja, ma’muriy, kurort, xo‘jalik, ma’naviy, me’mor, koinot, millioner, aglomeratsiya, tizim, infrastruktura, konussimon.

Nazorat savollari

1. Axolining ko‘payishi nima?
2. Urbanizatsiya tushunchasiga ta’rif bering.
3. Shaharlarda axoli sonining ortib borishi va urbanizatsiya.
3. Axoli va atrof-muhit.
4. Shahar axolisi - shaharlar mavqeining o‘sishi degan iboraga qanday qaraysiz?
5. Qishloq axolisi haqida fikr yuriting.
6. Fermaga ta’rif bering.
7. Infrastruktura nima?

8. Xo‘jalik yuritish sub’ektlariga nimalar kiradi?
9. Jahonda qancha aholi shahar va qanchasi qishloqda yashaydi?
10. O‘zbekistonda qancha aholi qishloqlarda yashaydi?

Adabiyotlar

1. Jahon mamlakatlari. Spravochnik. T., 1990.
2. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
3. Yer va insoniyat: umumjahon muammolari mamlakatlar va xalqlar turkumi. M., 1985. 3-4-Qismlar.

MAVZU: AXOLI MIGRATSIYASI

REJA:

1. Aholi migratsiyasi haqida tushuncha
2. Migratsiya turlari va shakllari
3. Aholini joylanishi va migratsion harakatlari.

Axolining yashash joyining o‘zgarish maqsadida bir joydan ikinchi joyga ko‘chirish aholi migratsiyasidir. Ba’zan adabiyotlarda axoli qishloqdan shaharga yoki aksincha, shahardan qishloqqa borib kelishi va ishlab qaytishini mayatniksimon migratsiya deyishadi. Bu to‘g‘ri emas albatta. Chunki, qishloqdan shaharga yoki shahardan qishloqqa ishga kelib uyga qaytishida migratsiyaning sharti bajarilmaydi. Bunda axolini yashash joyi o‘zgarmaydi. Shuning uchun bu jarayonni mayatniksimon harakati deb atash maqsadga muvofiqdir.

Migratsiya ichki yoki tashqi bo‘lishi mumkin. Migratsiya shuningdek, doimiy hamda vaqtincha bo‘ladi.

Axolining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib joylashishi qadimgi davrlardanoq mavjud bo‘lgan. Biroq har bir davrning migratsiyasi o‘ziga xos xususiyatlarga ega va turli oqibatlarga olib keladi.

Antik davrning oxiri va o‘rta asrning boshlarida ro‘y bergan hamda adabiyotlarda “xalqlarning buyuk ko‘chish davri” deb nom olgan migratsion harakatlar Yevropa va Osiyodagi ko‘p xalqlarning etnik tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Markaziy va shimoliy Yevropaga nemis xalqlarining joylashuvi, ularning Britaniya orollariga kirib borish hududi ana shu davrga to‘g‘ri keladi.

Eng katta migratsion portlash 19-asrda boshlandi. Yevropa asosiy migratsiya markazi bo‘lib qolgan edi. Bu erda kapitalizm rivojlanishi bilan axolining bir qismi hali bo‘sh erlar bor, xo‘jalik tez rivojlanayotgan va ishchi kuchiga talab vujudga kelgan joylarga “siqib chiqarilar” edi. Emigratsiya boshlangan vaqtdan to ikkinchi jahon urushigacha Yevropadan 60 mln odam

ko‘chib ketdi. Emigratsiyaning ikkinchi manbai Osiyoda vujudga keldi. Bu erdan Hitoy va Hind ishchilari ko‘chib ketar edi.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng tashqi migratsiyalar geografiyasi sezilarli darajada o‘zgardi.

G‘arbning rivojlangan mamlakatlarida 20-25 mln Chet ellik ishchilar ishlamoqda. Agar yashirin qolgan ishchilarni va ular oila a’zolarini ham qo‘shib xisoblasak, bular soni 40-50 mln kishiga etadi. Har yili davlat chegaralarini 2-3 mln kishi kesib o‘tadi.

20-Asrning ikkinchi yarmida tashqi migratsiyaning yangi shakli ya’ni “bilak kuchining” ketishidan farq qiluvchi “aqllilarning ketishi” deb nom olgan migratsiya paydo bo‘ldi. Bu ko‘chib ketishning mohiyati horijiy olimla, muhandislar, vrachlar va boshqa xil yuqori malakali mutaxassislarni yo‘ldan urishdan iborat.

Bunday migratsiya g‘arbiy Yevropadan AQShga ko‘plab ketishdan boshlandi.

Axoli migratsiyasining bir qancha turi mavjud. Bularga axolining qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib ketishi kiradi. Bu migratsiya ko‘p mamlakatlarda shaharlarning o‘sishi uchun manba bo‘ladi. Axolining hududiy qayta taqsimlanishi yirik va kichik shaharlar o‘rtasida ham ro‘y berayapti, yangi erlarni o‘zlashtirish ham migratsiya bilan bog‘liqdir. Migratsiyaning bu turi hududi katta va axolining joylanishi juda xilma-xil bo‘lgan mamlakatlar uchun xosdir.

Tayanch iboralar

Migratsiya, mayatnik, e’tiqod, antik davr, etnik, istilo, hudud, bilak kuchi, qit’a.

Nazorat savollari

1. Aholi migratsiyasi va unga ta’sir etuvchi omillar
2. Ichki va tashqi migratsiyaning mamlakat axolisi soniga ta’siri
3. Tashqi migratsiya: yangi shaklalri.
4. Migratsiya turlari va shakllari.
5. Aholini joylanishi va migratsion harakatlari.
7. Qanday holatlarda migratsiya vujudga keladi (migratsiyaga sabab bo‘lgan omillar)?
8. Hozirgi kunda jahonda yuz berayotgan migratsiya jarayonlariga misollar keltiring.
9. Migratsion portlash nima?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Bruk S.I. Naseleniya mira. Etnograficheskiy spravochnik. 2-Ye.izd. pererab. i dop. M., 1986.

MAVZU: DEMOGRAFIK SIYOSAT

REJA:

1. Axoli koʻpayishi va demografik faollik
2. Demografik siyosat - axolini koʻpayishini boshqarish.

Axoli koʻpayishining ikkinchi turi uchun tugʻilish va tabiiy koʻpayishning yuqori hamda yuqori, juda yuqori oʻlimning esa nisbatan kam ekanligi xosdir. Axoli koʻpayishining bu turi dastavval rivojlanayotgan mamlakatlar uchun xosdir.

Bu mamlakatlar mustaqillikni qoʻlga kiritgandan soʻng hozirgi zamon tibbiyoti, sanitariya hamda gigienaning yutuqlaridan kengroq foydalanish, birinchi galda yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish imkniyatiga ega boʻldilar. Bu esa oʻlimning keskin kamayishiga olib keldi. Tugʻilish esa koʻp mamlakatlarda ilgarigicha yuqori saqlanib qolgan. Albatta bunga minglab yillardan beri erta oila qurish va koʻp bolali oila odatlarining barqarorligi sabab boʻlmoqda. Oilaning oʻrtacha meʼyori hozir ham 6 kishi.

Axoli koʻpayishining ikkinchi turi xos boʻlgan mamlakatlarda axolini bunday tez koʻpayishi 20-asr oʻrtalaridan boshlab demografik portlash degan nom oldi. Hozirgi vaqtda demografik faolikni boshidan kechirayotgan bu mamlakatlarga er kurrasi axolisining 3/4 qismi va yillik mutloq koʻpayishning 85 mln toʻgʻri keladi. Shu jumladan Osiyoning oʻzida axolining soni har yili tahminan 55 mln kishiga, Afrikada 20 mln, lotin Amerikasida 10 mlndan ortiq koʻpayadi.

Demografik siyosat - axoli koʻpayishini boshqarish. Hozirgi vaqtda jahondagi koʻpchilik mamlakatlar davlat demografik siyosatini yurgizib, axolisining koʻpayishini boshqarishga intilmoqda. Demografik siyosat mamuriy, iqtisodiy, targʻibot va boshqa tadbirlar boʻlib, davlatlar bular yordamida axolining tabiiy koʻpayishiga oʻzi xohlagan yoʻnalishda taʼsir koʻrsatadi.

Axoli koʻpayishining birinchi turiga kiruvchi mamlakatlarda demografik siyosat koʻproq tugʻilishni va tabiiy koʻpayishni oshirishga qaratilgan boʻladi.

Axoli ko‘payishining ikkinchi turi xos bo‘lgan ko‘pchilik mamlakatlar keyingi o‘n yilliklarda itug‘ilishni va axolining tabiiy ko‘payishini qisqartirishga qaratilgan demografik siyosat yurgiza boshladilar. Bu sohada dunyoning ikkita eng katta mamlakati - Hitoy bilan Hindiston eng ko‘p harakat qilmoqda desa bo‘ladi.

21-Asr konstitutsiyasida er-xotin reja asosida farzand ko‘rishlari kerak deyilgan. Farand tug‘ilishini rejalashtirish qo‘mitasi tashkil etilgan, kechroq turmush qurish muddati belgilangan. Institutda o‘qish vaqtida odatda turmush qurishga ruxsat berilmaydi. “Bir oilaga - bir bola”.

Yevropa mamlakatlarida tug‘ilishning va tabiiy ko‘payishning pasayishi ko‘p jihatdan demografik sabablarga va birinchi galda keksa kishilar sonining ko‘payishida iqtisodiy va sotsial sabablar ham katta o‘rin tutadi. Rossiyada tug‘ilishning kamayishi va ko‘p bolalli oilalar kamayib, kam bolali oilalarning ko‘payishiga asosiy sabab ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishda bandlik darajasining ko‘tarilishidir. Lekin axolining qarishi hamda xizmat ko‘rsatish sohasining orqada qolayotgani ham sabab bo‘lmoqda.

Hozirgi paytda er shari aholisi har yili 85-90 mln kishiga ko‘payib bormoqda. Ya’ni yiliga 2-2,5 % ga usmoqda. Dunyo axolisining bunday tez o‘sishi hech qachon kuzatilgan emas.

Hozirgi davrda axolining yillik tabiiy o‘sishining 80 % rivojlnayotgan mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Lekin ba’zi mamlakatlardagi demografik tanglikni hisobga olsak ,”demografik portlash”ni Chetlab o‘tish mumkin.

Tayanch iboralar

Demografiya, tibbiyot, sanitariya, gigiena, Tayanch iboralar, sur’at, faol, ma’muriy, chilla, demografik tanglik.

Nazorat savollari

1. Demografik siyosat nima va uning ahamiyati?
2. Axoli ko‘payishining birinchi va ikkinchi turlari.
3. Aholi sonining o‘sib borishining qanday oqibatlari mavjud?
4. Qaysi dalatlarda axoli keskin o‘sishiga qarshi chora-tadbirlar ko‘rilgan?
5. Jahonning qaysi rivojlangan davlatlarida axoli soni ko‘payishi uchun chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda?
6. O‘zbekiston Respublikasida axoli sonining ortib borish ko‘rsatkichini belgilang va u davlat siyosatiga qay darajada to‘g‘ri keladi?
7. Axolining tez ko‘payishi qaysi millatlarda ko‘p kuzatiladi?
8. Axolining ko‘payishiga ta’sir etuvchi omillar.
9. Migratsiyaning axoli ko‘payishi yoki ozayishiga bo‘lgan ta’siri.
10. Urushlarning axoli ko‘payishiga bo‘lgan ta’siri?

Adabiyotlar

1. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
2. Asanov G. Sotsial iqtisodiy geografiya: termin va izohli lug‘ati. T., 1990.
3. Borisov M. Naseleniya mira. demograficheskiy spravochnik. M., 1989.
4. Yer va insoniyat: umumjahon muammolari mamlakatlar va xalqlar turkumi. M., 1985. 3-4-Qismlar.

MAVZU: MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI AXOLISINING SONI VA O‘SISH DINAMIKASI.

REJA:

1. Markaziy Osiyo davlatlari axolisining soni ko‘payishi va joylanishi.
2. Axolini diniy, etnik tarkibi. Axoli punktlari.

Ma’lumki, 1991 yili sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida dunyo siyosiy xaritasida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Bu Ittifoq o‘rnida 15 ta mustaqil respublika tashkil topdi. Oldin Qozog‘iston va O‘rta Osiyo” deb yuritilgan hududlar BMT qaroriga ko‘ra, Markaziy Osiyo regioni deb yuritila boshlandi.

Markaziy Osiyo regioniga qadimda Turkiston deb yuritilgan, hududiy jihatdan bir butun bo‘lgan, aholining tili, milliy urf-odatlari, an’analari bir-iriga uyg‘unlashgan, davlatlar - O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston va Tojikiston Respublikalari kiradi.

Markaziy Osiyo davlatlarining umuiy maydoni -4 mln. km.kv.ga yaqin. Shundan, 2715 ming km.kv.ga yaqin Qozog‘iston Respublikasiga, 488 Turksmaniston Respublikasiga, 447,7 O‘zbekiston Respublikasiga, 198,5 Qirg‘izistonga, 143 ming kv.km. tojikistonga to‘g‘ri keladi.

Markaziy Osiyo davlatlari maydoni MDHning 17,8 % ni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo davlatlari tarixiy o‘tmish tarzi, milliy anhanalar, urf-odatlarining o‘xshashligi va boshqa bir qator xususiyatlariga ko‘ra bir butun hududiy birlikni tashkil etadi.

Markaziy Osiyo regionlari aholisi 1997 yil ma’lumotlariga ko‘ra, 55,3 mln kishini tashkil etgan bo‘lib, bu MDH aholisining 17 % ga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘zbekistonda 24 mln, Qozog‘istonda 16,4 mln, tojikistonda 6 mln, Turkmanistonda 4,6 mln, Qirg‘izistonda 4,6 mln kishi yashaydi.

1939 yil ma’lumotlariga ko‘ra, Markaziy Osiyoda ..... ming kishi yashagan bo‘lsa, 19,,,, yili ..... mln kishini, 19997 yili esa 55,3 mln kishini tashkil etadi.

Markaziy Osiyo regionida axoli tabiiy ko‘payishi ko‘rsatkichlarining keyingi vaqtlargacha ham yuqori xolda saqlanishi bir qator ijtimoiy - iqtisodiy sabablar bilan bog‘liq. Ular quyidagilar.

1. Markaziy Osiyoda yashovchi mahalliy millat va kishilar orasidagi an’anaviy ko‘p bolalikning barqaror xoldaligi.
2. Rivojlangan mamlakatlarga xos hozirgi zamon ilmiy va industrial ishlab chiqarish madaniyatining nisbatan pastligi.
3. Urbanizatsiya darajasining pastligi tufayli axoli asosiy qismining qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq ishlab chiqarish sohalarida bandligi.
4. Oilada bolalar sonini oldindan belgilash va tug‘ilishni cheklash choralarini qo‘llashning keng tarqalmaganligi.
5. Mahalliy millat ayollari orasida ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etmaydiganlar salmog‘ining ko‘pligi va h.k.

Ilmiy xulosalar Markaziy Osiyoda axoli tabiiy o‘sishining yaqin kelajakda ham nisbatan yuqori sur’atlarda davom etishini ko‘rsatadi.

Tayanch iboralar

Region, kontinental, relef, migratsion, harakatlar, dinamika, demografiya, jarayon, psixologiya, urbanizatsiya, sur’at, industrial, etnik, shaxobcha, tizim.

Nazorat savollari

1. Markaziy Osiyo davlatlari xalq xo‘jaligini tashkil etish va rivojlantirish masalalari.
2. Markaziy Osiyo axolisining soni va tarkibi.
3. Axolini xududiy taqsimlanishida o‘ziga xos xususiyatlari
4. Shahar axolisi va urbanizatsiya darajasi.
5. Markaziy Osiyo davlatlari axolisining joylanishida relef shakllarining axamiyati.
6. Axolining diniy hamda etnik tarkibi deganda nimani tushunasiz?
7. Axoli punktlari nima?
8. MDH davlatlari o‘rtasida eng ko‘p aholiga ega bo‘lgan davlat haqida gapiring.
9. MDH davlatlari ichida eng tez o‘sish sur’atiga ega bo‘lgan davlat.
10. Markaziy Osiyo davlatlari jahondagi davlatlar o‘rtasida axoli o‘sib borish jihatidan qanday o‘rinni egallagan?

Adabiyotlar

1. Mullajonov I.R. O‘zbekiston axolisi. Toshkent. 1974.

2. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
3. Borisov M. Naseleniya mira. demograficheskiy spravochnik. M., 1989.

Mavzu: Mehnat resurslarini shakllanishini demografik asoslari

1. Aholini tabiiy o‘sishi va unga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar.
2. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim malakasi darajasi.
3. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.
4. Aholining hududiy joylashuvi va migratsiya jarayonini mehnat resurslariga ta’siri.

Tayanch iboralar: mehnat resurslari, iqtisodiy bandlik jarajasi, urbanizatsiya darajasi, aholi zichligi, migratsiya, tabiiy o‘sish, tug‘ilish darajalari.

Mexnat resurslarini shakillanishi va ularga tasir ko‘rsatuvchi omillar to‘g‘risida tushincha berish. Aholining hududiy joylashuvi shahar va qishloq aholisi, mexnat resurslari ulardan foydalanish muammoldarni muhim hususiyatini o‘rganish.

O‘zbekistonda mehnat resurslari bilan ta’minlanish darajasi yuqori lekin ularni tarkibida malakali mutaxasislar salmog‘i va sifat darajasi ko‘pgina sohalarda yuqori darajada emas.

1. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim malakasi darajasi. Respublika ijtimoiy tarkibi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Bizga ma’lumki, ijtimoiy sinf tarkibini o‘zgarishiga olib keladi. Aholining ijtimoiy tarkibi aytilganda, engoldin uning mashg‘uloti yoki kasb-kor asosida birlashgan guruhlarni tushuniladi. Sovetlar davridagi yillarda aholining kasb-kor mashg‘ulotida katta o‘zgarshlar yuz berdi. 1993 yilda statistika mahkamasining ma’lumotlariga ko‘ra mehnatda band bo‘lgan butun aholining 24,4 % sanoatda, qurilish va transportda ishlayotgan ishchi va xizmatchilardan iborat edi. Vaholangki, 1913 yili O‘zbekiston aholisi atigi 5 % ni ishchi va xizmatchilar tashkil qilgan edi.

O‘zbekiston aholisining bilim darajasi keyingi yillarda katta o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Inqilobdan oldin O‘zbekiston aholisining 2 % gina savodi bo‘lgan. Hozirgi davrda barcha savodxon bo‘lib, barcha o‘quv muassasalarida o‘qiyotganlarni soni 1993-94 yillarda 6133,4 ming kishiga etdi. O‘zbekistonda inqilobdan oldingi va hozirgi O‘zbekistonda 1914-1915 yillarda 171 ta umum ta’lim maktablari bo‘lgan, ularda 700 o‘qituvchi ishlagan edi. 17,8 ming o‘quvchi ta’lim olgan edi. 1993-1994 yillarda O‘zbekistonda 9192 ta umumi ta’lim maktablari bo‘lib, ularda 4853,5 ming o‘quvchi o‘qigan. Ularda ishlaydigan o‘qituvchilar soni 420,5 ming kishi edi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohalarida ham katta yu yutuqlarga erishildi. 1914-1915 o‘quv yillarida O‘zbekistonda ikkita maxsus o‘quv yurti bo‘lgan. Ularda 100 kishi ta’lim olgan. Shulardan atigi 3 kishi mahalliy millat vakili

edi. 1993-1994 o‘quv yilida O‘zbekistonda 55 ta Oliy maktab bo‘lib, ularda 272,3 ming talaba bilim oladi. Shu yili Respublikamizda O‘rta maxsus byuilim yurtlari 248, ulardagi o‘quvchilar soni 240,1 ming nafarga etdi. Yildan-yilga O‘zbekiston xalq xo‘jaligida ishlaydigan oliy ma’lumotli kadrlar 19,9 ming va o‘rta maxsus ma’lmotga ega bo‘lganlar 34,7 ming mutaxassis ishlagan bo‘lsa 1994 yili Oliy ma’lumotlilar soni 988 ming va o‘rta ma’lumotlilar 6408 ming kishiga etdi. O‘zbekistonda mustaqilikka erishilgandan keyin, industrial taraqqiyotni rivojlantirish bilan birga bog‘liq holda hunar-bilim yurtlari orqali malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Umuman yildan-yilga xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari qatori oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli, malakali mutaxassislarni soni va salmog‘i ortmoqda. Shu yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarni hayotida ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Inqilobdan avval o‘zbek xotin-qizlari ishlab chiqarishda kamdan kam qatnashganlar, asosan uy-ro‘zg‘or ishlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullangan edi. Hozirgi vaqtda o‘zbek xotin-qizlari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida faol mhnat qilmoqdalar. Masalan, 1993 yilda Respublikada ishchi va xizmatchilarning 46 % ni va dehqonchilikda 54,5 % ni xotin-qizlar tashkil qilgan. Ular ko‘proq sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta’lim 76,9 %, xalq ta’limi 59,9 %, savdo va umumovqatlanish sohasida 45,6 % ni tashkil qiladi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘zbek xalqining jahonshumul yutuqlari ifodasidir. O‘zbekiston kelajakda rivojlangan davlatga aylanishi, zamonaviy sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish malakasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi.

2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.

Aholisining o‘z jismoniy va mahnaviy imkoniyatlariga ko‘ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan qismi jamiyatning mehnat resurslari hisoblanadi.

Muammoli vaziyat: Aholining zichligi va joylashuvi iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy omillar bilan belgilanadi.Qaerda hudud iqtisodiy jihatdan yaxshi o‘zlvshtirilgan bo‘lsa aholi zich bo‘ladi.

Mehnat resurslarining soni turli mamlakatlarda turlicha, Chunki axolining yuridik jihatdan belgilab qo‘yilgan va mehnat resurslariiga kiritiladigan Yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada, odatda 15 Yoshdan 65 Yoshgacha bo‘lganlar mehnatga yaroqli axoli hisoblanadi.

Mehnatga yaroqli axoli, o‘z navbatida, ikki guruhga bo‘linadi: iqtisodiy aktiv axoli va iqtisodiy aktiv bo‘lmagan axoli. Iqtisodiy aktiv aholi tushunchasining haqiqiy ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydi va kapitalistik mamlakatlarda mehnat resurslaridan foydalanishdagi haqiqiy axvolni buzib

ko‘rsatadi. Chunki, mehnat resurslari sonining o‘sishi, asosan, axolining tabiiy o‘sishi hisobiga bo‘ladi.

Mehnat resurslarining geografik jihatdan o‘rganish ikkita muhim aspektda olib boriladi. Mehnatga yaroqli axolining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvchidagi farqlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi, xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish xususiyatlarini o‘rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiq qilishning muhim tomonlarilan biridir.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida ishlovchilar sonining kamayib borishi, sanoat va qurilishda ishlovchilar sonining stabillashuvi, moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish , birinchi navbatda, aholiga bevosita xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarning tez rivojanishi bilan birga sodir bo‘lmoqda.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda iqtisodiy aktiv aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi bir xil emas, ayrim mamlakatlar gruppasida bir-biridan ancha farq qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy aktiv aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi sotsialistik mamlakatlardan ham, kapitalistik mamlakatlardan ham farq qiladi.

Aksincha rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi tarkibida 15 Yoshgacha bo‘lgan Yosh avlodning salmog‘i ancha yuqori.

Rivojlanayotgan mamlakatlar milliy mustaqillikni qo‘lga kiritganlaridan so‘ng keyingi yillarda sanoatni rivojlantirishga ayniqsa katta etibor bera boshladilar, sanoat ishlarining soni ham o‘sa boshladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish va xizmat doirasida ishlovchilar ham nisbatan kam.

Shunday qilib, mehnat resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy aktiv aholining strukturasida turli tipga mansub bo‘lgan mamlakatlarda keskin farqlar bor.

Agar mehnat resurslarlariga ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan pensionerlar va 16 Yoshga etmagan bolalarni qo‘shib xisoblasak, mamlakatimizning real mehnat resurslari barcha axolining ko‘p foizining tashkil etadi.

Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan 115,2 million kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etgan.Xalq xo‘jaligining biron tarmog‘ida mehnat resurslaridan faydalanishning samaradorligining na shu sohadagi mehnat ulumdorligi bilan belgilanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning ko‘pgina tomonlarini ijtimoiy ishlab chiqarishdaband bo‘lgan aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi haqidagi malumotlar berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi bu xususiyat javalda o‘z aksini topgan. Sanoat va qurilishda ishlovchilarning salmog‘i 1913-1976

yillar ichida barcha xizmat doirasi sohalarida ishloqchilarning salmog‘i besh marta oshgani holda, maorif, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, san’at sohalarida ishloqchilarning samog‘i 16 manrta ortgan.

Kelajakda fan-texnika taraqqyotidan, yangi texnologiyadan moddiy ishlab chiqarish sohalarida keng foydalanish tufayli, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish ishlovchilar sonini oshirish yo‘li bilan emas, balki unga sarf qilinadigan mehnatni kamaytirish hisobiga amalga oshiriladigan bo‘ladi.

Albatta, mamlakatimizdagi demografik ahvolning yaqin 20 yil ichidagi bunday xususiyatlari mehnat resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni ayniqsa aktual qilib qo‘ydi.

O‘ninchi besh yillikda mehnat resurslaridan foydalanishning yana bir muhim sifat tomoni hqida ham gapirib o‘tish zarur. Shu munosabat bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan aholining aqliy mehnar va jismoniy mehnat sohalarida band bo‘lishi hamda ular o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi ularning bilim darajasi - mehnat resurslaridan foydalanishdagi sifat o‘zgarishlaridir.

Xalq xo‘jaliginig deyarli barcha tarmoqlarida xech qanday bilimni talab qilmaydigan faqat jismoniy mehnatga asoslangan kasblar va bunday ishchilar soni tinmay kamayib, aksincha, mahsus oliy va o‘rta hamda umumiy o‘rta bilimni talab etuvchi kasblar va ularga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Bu ma’lumotlar mamlakatimizda mehnat resurslariidan foydalanishdagi juda katta sifat o‘zgarishlarini har bir mehnatkashning o‘z bilimi va malakasini oshirishga juda katta g‘amho‘rlik qilayotanini ko‘rsatuvchi tarixiy faktlardir.

Ketirilgan ma’lumotlarning juda katta tarixiy ahamiyatni tushunish uchun, hozirgi axvolni xotin-qizlarning avvalgi axoli bilan solishtirish kifoya qiladi.

Xotin-qizlar xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida mehnat qilish bilan birgalikda, davlatni boshqarish ishlarida ham aktiv ishtirok etmoqdalar. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni geografik o‘rganishning muhim momentlaridan biri mehnat resurslarining strukturasi, dinamikasi va foydalanish harakteridagi territorial farqlarni aniqlashdan iborat.

Biroq, mehnat resurslari ko‘pchilik qismining qishloq xo‘jaligida band bo‘lganligi, xizmat djoirasi tarmoqlarining nisbatan yaxshi taraqqiy etmaganligi natijasida mehnat resurslaridan to‘la foydalanilmaydi.

3. Aholining hududiy joylashishi va aholi migratsiyasi.

Muammoli vaziyat: Urbanizatsiya, aglomeratsiya jarayonlari va ularni sabablarini o‘rganish.

Aholining hududiy joylashuviga tarixiy xo‘jalik jarayonlar va iqtisodiy geografik omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda uzoq zamonlardan buyon

aholi asosan yaxshi o‘zlashtirilgan, qulay tabiiy iqtisodiy sharoitga, suv manbalariga ega bo‘lgan vodiylarda ancha zid yashab kelgan va yashab kelmoqda. Bularga Farg‘ona, Zarafshon vodiylari, Xorazm va Toshkent vohalari kiradi. Qurg‘oqchilik va cho‘l qismlarida oqar suv manbalari bo‘lmaganligi uchun aholining zichligi juda pastdir. O‘zbekistonda aholining o‘rtacha zichligi 1996 yilda 1 km.kv. ga 328,2 kishiga to‘g‘ri keladi. Andijon viloyatida esa 1 km.kv. erga 484 kishi to‘g‘ri keladi. Toshkent viloyatida 248,4 kishi, Xorazmda 356,3 kishi to‘g‘ri keladi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida zichlik ancha kam. (69,4 va 75,9). O‘zbekistonda eng siyrak aholiga ega hududlar Navoiy (67,7) va Qoraqalpog‘iston (8,6) kishi bo‘lib, hududning katta qismi Qizilqum cho‘lidan iborat. O‘zbekiston aholisining hududiy taqsimlanishida va o‘sishsh sur’atlarida farqlar ta’siri katta bo‘ladi. O‘zbek va boshqa tub millatli vakillarning o‘lkalararo ko‘chishidagi ishtiroki deyarli barcha darlarda ham bo‘ladi.

1979 yil aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Rossiyada 72,4 ming o‘zbek yashagan, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 1918 yilda 7,6 ming, 1916 yilda 29,6 ing, 1917 yilda 54,5 ming kishi boshqa mamlakatlardan O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan.

1926 yilgi axoli ro‘yhatiga ko‘ra, O‘zbekistonga ko‘chib kelganlar soni 437-643 kishi edi. Respublikaning xalq xo‘jaligini industriyalash maorif, sog‘liqni saqlash, fan va madaniyat tadbirlarini rivojlantirish amalga oshirilgan yillarda rus, ukrain, tatar va boshqa millatlarga mansub ko‘plab o‘qituvchi, tibbiyot xodimlari, muxandislar, olimlar O‘zbekistonga ko‘chib kela boshlaganlar. Kelganlarning ko‘pchiligi Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon mintaqasi markazlariga kelib joylashgan.

Respublikada ichkki ko‘chishning asosiy yo‘nalishlaridan biri aholining qishloq erlridan shaharlarga ko‘chib kelib joylashishidir. Bu jarayon bozor iqtisodiyoti jarayoni bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Muammoli vaziyat: Mexnat resursi jamiyatning eng asosiy kuchi ekanligi iqtisodiy aktiv va aktiv bo‘lmagan guruxlarga bo‘lish. Ish bilan bandliliga erishish muammolarining sabablari.

4. Shaharlar juda qadimgi zamonda ma’muriy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik markazi, harbiy qo‘rg‘onlar sifatida Nil, Dajla, Furaot daryolari deltalarida paydo bo‘lgan. Kapitalizmni rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o‘sishi bilan shaharlarda sanoat to‘plandi. Ko‘p shaharlar transport tugunlariga, savdo taqsimot tuunlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma’muriy va madaniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 20-Asr o‘zrtalarida nomoddiy sohalarning o‘sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon shahari bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud. Masalan, tog‘-kon sanoti shahari ilmiy

shahar, kurort shahari va xhatto poytaxt shaharlari ham qurilgan. Ba’zi shaharlar poytaxt qilish uchun maxsus qurilgan.

Urbanizatsiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya deb mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar axolisini salmog‘i ortishi, murakkab shaharchalar shaxobchalari, tizimlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya, jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o‘sish jarayongidan, jamiyatning axoli mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko‘proq shaharlarga xos bo‘lib o‘zgarib borishidan iboratdir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo‘lib ko‘pchilik mamlakatlarga xos bo‘lgan uchta umumiy xususiyatga ega.

Birinchi xususiyat - shahar axolisi sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib borishi. Masalan, 1900 yilda jahon axosilining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo‘lsa, 1950 yilda 29 % ga, 1990 yilda 45 % ga etdi. O‘rta hisobda olganda shaharlar aholisi har yili 50 mln kishiga ko‘payib bormoqda.

Axolishunoslarning fikriga ko‘ra, 2000 yilga kelib, shahar axolisi jahon axolisining yarmidan oshib ketdi.

Ikkinchi xususiyat - axoli va xo‘jalikning asosan yirik shaharlarda to‘planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta’lim bilan aloqasining murakkablashib borayotgani sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari katta shaharlar kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini odatda to‘liqroq qondiradi.

Uchinchi xususiyat - shaharlar maydonini kengayib ketishi. Hozirgi zamon shaharlashishi uchun shaharlarning oddiy bir o‘zakli shaklidan shaharlar va qishloqlar tutashib ketib, shaharlar guruhi, shaharlar “uyumi” shakliga, ya’ni shaharlar agromeratsiyasi shakliga o‘tish xosdir.

Urbanizatsiya butun jahon jarayoni sifatida umumiy xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birg turli mamlakatlar va hududlarda o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar urbanizatsiyaning har xil darajada ekanligida va sar’atida aks etadi.

Urbanizatsiya darajasi ancha past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlashish eniga o‘smoqda, shahar axolisi tez ko‘payib bormoqda. Shaharlar axolisining yillik o‘sishi 4/5 qismi rivojlanayotgn mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Shaharliklarning mutloq soni esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagidan anchagina oshib ketdi. Ilm fanda shahar portlashi deb nom olgan bu hodisa rivojlanayotgan mamlakatlarning butun sotsial - iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Shaharlarning tez o‘sayotganligiga qaramay jahon aholisining yarmidan ortig‘i qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning umumiy soni esa 15-20 mln ga etadi. Qishloq axolisini joylanishida asosan ikki usul mavjud: g‘uj va tarqoq joylashish.

Qishloqlarning mavjudligi tarixiy, iqtisodiy rivojlanishga tabiiy sharoitning xususiyatlariga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda urbanizatsiya atrof muhitning o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Katta shaharlar va aglomeratsiyalar ifloslikning deyarli asosiy manbai bo‘lib, atrof-muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi o‘rinda atmosfera havosini ifloslanishi kuzatiladi.

Asosiy xulosa. Axolining hozirgi vaqtdagi o‘sish jarayoni, tarkibi va joylashish ko‘pgina masalalrni tug‘diradi. Bu masalalarning ba’zilari butun jahonga xos bo‘lsa, ayrimlari turli toifadagi mamlakatlarga xosdir. Jahon axolisining tez ko‘payib borayotgani millatlararo munosabatlar, urbanizatsiya masalalari ana shunday muhim muammo masalalardir.

O‘lkaning iqtisodiy jihatdan o‘zlashtirishda uzoq tarixiy jarayoalar va ularga ta’sir etuvchi iqtisodiy-tarixiy va geografik omillar yordamida shakllanadi. Buni biz O‘zbekiston misolida ko‘rishimiz mumkin. CHo‘l iqlimiga xos bo‘lgan O‘zbekistonda uzoq zamonlardan buyon aholi asosan qulay tabiiy, iqtisodiy geografik tarixga va suv manbalariga ega bo‘lgan. Vodiy, voxa erlarda aholi ilgaritdan yashab kelganlar va yaxshi o‘zlashtirilgan erlarda yashab kelganlar masalan: farg‘ona vodiysi, Zarafshon, Xorazm va Toshkent voxalarida yashab kelishgan.

O‘zbekistonning hamma hududlarida, mintaqalarida aholi zichligi bir xil emas.

Eng aholisini zichligi yuqori bo‘lgan hudud Farg‘ona vodiysi hisoblanadi. 1km^2 ga 347-348 kishi yoki Andijon viloyatiga 1km^2 erga 513.7 kishi, Farg‘ona viloyatida 393.9 kishi to‘g‘ri keladi. Toshkent viloyatida ham aholi zichligi yuqori 1km^2 ga 288.6 kishi to‘g‘ri keladi va bu qadimdan muhim ho‘jalik mintaqalaridan bo‘lib kelgan. O‘rta Osiyoning engsh yirik shaharlaridan biridir.

Aholi siyrak hududlar Navoiy viloyati-1km^2 ga 7 kishi, Qoraqolpog‘iston av. res- 8.3 kishi, Buxoro viloyatida-34.9 va Jizzax viloyatida esa 1km^2 ga 46 kishi to‘g‘ri keladi. Bu jarayonlar doimiy turg‘un bo‘lmaydi, o‘zgarib turadi.

2.Shahar va qishloq aholisi urbanizatsiya jarayoni.

Muammoli vaziyat: *Aholining zichligi va joylashuvi, iqtisodiy-ijtimoiy va tabiiy omillar bilan belgilanadi. Qaerda hudud yaxshi iqtisodiy jihatdan yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa aholi zich bo‘ladi.*

Aholining shahar va qishloqlar o‘rtasida taqsimlanish darajasi iqtisodiy-ijtimoiy, ayniqsa sanoat bilan qishloq ho‘jaligi qay darajada rivojlanganligi bilan bog‘liqdir. Shaharlar qadimgi zamonda ma’muriy xokimyat, savdo-tijorat, hunarmandchilik markazi bo‘lib kelgan. O‘zbekistonda ishlab chiqarishning kuqli o‘sishi, sanoat taraqqiy etishi bilan shahar salmog‘i orta bordi. Agar 1897 yilda O‘zbekistonda aholining 18.8%

shaharlarda yashagan, 1926 yilda 22% ga, 1940 yilda 24.5%, 1959 yilda 33.6%, 1970 yilda 36.6%, 1989 yilda 40.7%, 1999 yilda 37.8% shaharda, qishloqda esa 62.2% ni tashkil qilgan.

Sovetlar davrida shaharda iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy rivojlanish negizi kuchayganligi sababli ularning soni ortti va yiriklashdi. Hozir yirik aglomeratsiyalar vujudga kelgan masalan: Toshkent, Farg‘ona- Marg‘ilon keyingi vaqtlarda Samarqand, Andijon va Navoiy, Buxoro aglomeratsiyasi ham shakllanmoqda.

O‘zbekistonda shaharlarni har xil ho‘jalik ishlari va boshqa vazifalarni bajarishiga qa rab quyidagilarga bo‘linadi.

- Ko‘p vazifani yirik shahar -Toshkent shahri u O‘zbekiston poytaxti, siyosiy, ilmiy, madaniy, ma’muriy hamda transport va sanoat markazi hisoblanadi.
- Viloyatlar markazlari-ular iqtisodiy ma’muriy sanoat va madaniy markaz hisoblanadi.
- Muhim sanoat markazlari-Angren, Olmaliq, CHirchiq va Asaka shaharlaridir.
- Kichik sanoat markazlari-Zarafshon, Taxiatosh, Quvasoy va boshqalar.

Toshkentda aholi 2mln 200 ming, Samarqand 364 ming, Andijon 334 ming aholi yashaydi.

3.Mexnat resurslari va ulardan foydalanish muammolari.

Mexnat resurslari- bu jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi ijtimoiy ishlab chiqarishning eng muhim komponentir. Mexnat resursi deb aholi jihatidan sog‘lom mexnatga layoqatli kishi mexnat resursi deyiladi. Mexnat resurslarini soni, o‘sish dinamikasi professional tayyorgarligi va jorylanishi butun mamlakat miqyosida va ichki rayonlar doirasida ishlab chiqarishning ixtisoslanishi va hududiy tashkil etilishiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Jahon aholisining mexnat faoliyati bilan bog‘liq holda 3 qismga bo‘lamiz.

1. Yosh bolalar va o‘smirlar ular ishlab chiqarishgacha bo‘lgan aholi.
2. Mexnat resurslarining asosiy qismi mexnatga qobilyatlilar aholining 16-55 Yoshgacha ayollar, 16-60 Yoshgacha bo‘lgan erkaklar.
3. Mexnatdan keyingi yoki 55 Yoshdan yuqori Yoshdagi ayollar va 60 Yoshdan yuqori bo‘lgan erkaklar, keksalar kiradi.

Mexnat resurslariga mexnatga qobilyatlilar va qisman o‘smirlar va keksalar kiradi. Mexnat Yoshdagi aholining biroz qismi mexnat qobilyatini yo‘qotgan bo‘lishi ham mumkin.

Mexnatga qobilyatlilar iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy, siyosiy va ijtimoiy sharoit bilan bog‘liq holda 2 guruxga bo‘linadi.

1) Butun ishlab chiqarishda band bo‘lgan aholi kiradi.

2) Ishlab chiqarishda band bo‘lmagan, uy bekalari, vaqtincha ish faoliyatini yo‘qotganlar, o‘quvchilar, armiyadagi askar yigitlar va boshqalar kiradi.

Muammoli vaziyat: *Mexnat resursi jamiyatning eng asosiy kuchi ekanligi iqtisodiy aktiv va aktiv bo‘lmagan guruxlarga bo‘lish. Ish bilan ta’minlash va bandlik darajasini oshirish muammolarini echish hamda taxlil etish.*

1999 yilda O‘zbekistonning mexnat resurslari 143 mln kishini tashkil etgan edi. Bu umumiy aholining salkam yarmi demakdir. Ular yiliga 200-250 ming kishiga ortmoqda. Mexnatga yaroqli kishilarning soniing bunday o‘sishi, ularni ijtimoiy foydali mexnatga jalb etish va undan oqilona foydalanish muammosini keltirib chiqaradi.

Ishlab chiqarishni takomillashgani sari yuqori malakali mutaxassislar bo‘lgan talab ortmoqda.

O‘zbekistonda tabiiy o‘sish va jumladan mexnatga qobilyatlilar yoki mexnat resurslari ham yildan-yilga ortmoqda. Hozir ham ancha ko‘p kelajakda yana mexnat resurslari ortadi. Ularni ish bilan ta’minlash masalasi O‘zbekistonning eng muhim dolzarb masalalaridan biridir. Bu muammolarni xal qilishda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

1) Tez o‘sib borayotgan aholini ish bilan ta’minlashning eng asosiy manbasi, yurtboshimiz I.A Karimov so‘zi bilan aytganda birinchi galda sanoatni qishloqga olib kelishimiz, mexnatni qayta ishlaydigan ixcham korxonalarni qishloq zaminiga joylashtirish lozim degan edi. Chunki qishloqlarda mexnat resurslari ko‘p uy-joy sharoitlariga ega asosan sanoat uchun xom ashyolar etarli hamda ko‘p tumanlarda 5000-8000 va undan ortiq qishloqlar aholisi bo‘lgan aholi punktlari juda ko‘p. bUnday sharoitda har xil xajmda sanoat va qurilish ob’ektlarini qurish qishloqlarda aholiga xizmat ko‘rsatish keng tashkil etish aholining ma’lum qismini ish bilan ta’minlash imkonini beradi. Natijada qishloqlarda aholining ijtimoiy va iqtisodiy sharoiti yana yaxshilanadi.
2) O‘zbekistonda aholiga xizmat qilish ho‘jalik tarmog‘ini keng rivojlantirish taqozo etadi.
3) O‘zbekistonla aholining ish bilan bandligi ta’minlashni va qishloq ho‘jaligi mahsulotlarini ko‘plab ishlab chiqarishni yakka tartibda shaxsiy ho‘jaliklarni oilaviy va fermer ho‘jaliklarini keng rivojlantirish taqozo etadi.
4) O‘zbekistonda ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun yangi erlarni o‘zlashtirish, yangi undiruvchi sanoatlarni barpo qilish erlarni holatini yaxshilashni taqozo etadi.

5) Respublikada zamonaviy ilg‘or texnologiyalardan foydalanish hamda ilg‘or mamlakatlar bilan hamkorlik asosida ishlab chiqarishni rivojlantirishni maqsadga muvofiqdir.
6) Yangidan-yangi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va hakozolar.

Yuqoridagi tadbirlarni amalga oshirish ko‘plab sanoat va qishloq ho‘jaligini mahsulotlarini ishlab chiqarishga olib keladi. Bu bir tomondan, ikkinchi tomondan esa o‘sib borayotgan aholi va mexnat resurslarini ish bilan ta’minlashga keng yo‘l ochadi.

SAVOL VA TOPShIRIQLAR:

1. O‘zbekistonda mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda qanday tadbirlar yoki loyixalar ishlab chiqish zarur?
2. Urbanizatsiya tushunchasiga baho bering?
3. Shaharlar o‘z vazifasiga ko‘ra qanday vazifa bajaradi va ularning tiplari?
4. Mexnat resursi deganda nimani tushunasiz?
5. Aholini ish bildan bandligiga erishish uchun nimalar qilish kerak?

Quydagi topshiriqni bajaring:

1. O‘zbekistonda milliy aholi siyosatini yo‘nalishlarini o‘rganing va taxlil eting. Talaba o‘zi yashayotgan hudud axolisini «sifatli rivojlanishini» referat shaklida yozish.

Mavzu bo‘yicha yangiliklar:

Aglomeratsiya, tizim, urbanizatsiya, infrastruktura, milliy aholi siyosati, aholini sifatli rivojlantirish tamoillari, mexnat resurslari va ularni tarkibi.

ADABIYOTLAR.

1. I.A Karimov O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishining o‘ziga xos yo‘li. Toshkent, 1993 yil.
2. I.A Karimov Dehqonchilik taraqqiyoti faravonlik manbai. Toshkent, 1994 yil.
3. R. Mullajonov Demograficheskie razvitiya Uzbekskoy SSR. Toshkent, 1988 y.
4. Asanov G. Axoli geografiyasi. T., 1978.
5. Yer va insoniyat: umumjahon muammolari mamlakatlar va xalqlar turkumi. M., 1985. 3-4-Qismlar.

1. Aholining ijtimoiy tarkibi va bilim malakasi darajasi.

Respublika ijtimoiy tarkibi O‘zbekistonda ijtimoiy munosabatlar xususiyatlari bilan bog‘liqdir. Bizga ma’lumki, ijtimoiy sinf tarkibini o‘zgarishiga olib keladi. Aholining ijtimoiy tarkibi aytilganda, eng oldin uning maoshg‘uloti yoki kasb-kor asosida birlashgan guruhlarni tushuniladi. Sovetlar davridagi yillarda aholining kasb-kor mashg‘ulotida katta o‘zgarshlar yuz berdi. 1993 yilda statistika mahkamasining ma’lumotlariga ko‘ra mehnatda band bo‘lgan butun aholining 24,4 % sanoatda, qurilish va

transportda ishlayotgan ishchi va xizmatchilardan iborat edi. Vaholangki, 1913 yili O‘zbekiston aholisi atigi 5 % ni ishchi va xizmatchilar tashkil qilgan edi.

O‘zbekiston aholisining bilim darajasi keyingi yillarda katta o‘zgarishlarni ko‘rsatdi. Inqilobdan oldin O‘zbekiston aholisining 2 % gina savodi bo‘lgan. Hozirgi davrda barcha savodxon bo‘lib, barcha o‘quv muassasalarida o‘qiyotganlarni soni 1993-94 yillarda 6133,4 ming kishiga etdi. O‘zbekistonda inqilobdan oldingi va hozirgi O‘zbekistonda 1914-1915 yillarda 171 ta umum ta’lim maktablari bo‘lgan, ularda 700 o‘qituvchi ishlagan edi. 17,8 ming o‘quvchi ta’lim olgan edi. 1993-1994 yillarda O‘zbekistonda 9192 ta umumi ta’lim maktablari bo‘lib, ularda 4853,5 ming o‘quvchi o‘qigan. Ularda ishlaydigan o‘qituvchilar soni 420,5 ming kishi edi. Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohalarida ham katta yu yutuqlarga erishildi. 1914-1915 o‘quv yillarida O‘zbekistonda ikkita maxsus o‘quv yurti bo‘lgan. Ularda 100 kishi ta’lim olgan. Shulardan atigi 3 kishi mahalliy millat vakili edi. 1993-1994 o‘quv yilida O‘zbekistonda 55 ta Oliy maktab bo‘lib, ularda 272,3 ming talaba bilim oladi. Shu yili Respublikamizda O‘rta maxsus byuilim yurtlari 248, ulardagi o‘quvchilar soni 240,1 ming nafarga etdi. Yildan-yilga O‘zbekiston xalq xo‘jaligida ishlaydigan oliy ma’lumotli kadrlar 19,9 ming va o‘rta maxsus ma’lmotga ega bo‘lganlar 34,7 ming mutaxassis ishlagan bo‘lsa 1994 yili Oliy ma’lumotlilar soni 988 ming va o‘rta ma’lumotlilar 6408 ming kishiga etdi. O‘zbekistonda mustaqilikka erishilgandan keyin, industrial taraqqiyotni rivojlantirish bilan birga bog‘liq holda hunar-bilim yurtlari orqali malakali mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor berilmoqda. Umuman yildan-yilga xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlari qatori oliy va o‘rta maxsus ma’lumotli, malakali mutaxassislarni soni va salmog‘i ortmoqda. Shu yillarda O‘zbekistonda xotin-qizlarni hayotida ham katta o‘zgarishlar bo‘ldi. Inqilobdan avval o‘zbek xotin-qizlari ishlab chiqarishda kamdan kam qatnashganlar, asosan uy-ro‘zg‘or ishlari, bola tarbiyasi bilan shug‘ullangan edi. Hozirgi vaqtda o‘zbek xotin-qizlari xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlarida faol mhnat qilmoqdalar. Masalan, 1993 yilda Respublikada ishchi va xizmatchilarning 46 % ni va dehqonchilikda 54,5 % ni xotin-qizlar tashkil qilgan. Ular ko‘proq sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta’lim 76,9 %, xalq ta’limi 59,9 %, savdo va umumovqatlanish sohasida 45,6 % ni tashkil qiladi.

Bu ko‘rsatkichlar o‘zbek xalqining jahonshumul yutuqlari ifodasidir. O‘zbekiston kelajakda rivojlangan davlatga aylanishi, zamonaviy sanoat va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish malakasiga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashni taqozo qiladi.

2. Mehnat resurslari va ulardan foydalanish.

Aholisining o‘z jismoniy va mahnaviy imkoniyatlariga ko‘ra mehnat qila olish qobiliyatiga ega bo‘lgan qismi jamiyatning mehnat resurslari hisoblanadi.

Aholining zichligi va joylashuvi iqtisodiy, ijtimoiy va tabiiy omillar bilan belgilanadi. Qayerda hudud iqtisodiy jihatdan yaxshi o‘zlashtirilgan bo‘lsa aholi zich bo‘ladi.

Mehnat resurslarining soni turli mamlakatlarda turlicha, Chunki axolining yuridik jihatdan belgilab qo‘yilgan va mehnat resurslariiga kiritiladigan Yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada, odatda 15 Yoshdan 65 Yoshgacha bo‘lganlar mehnatga yaroqli axoli hisoblanadi.

Mehnatga yaroqli axoli, o‘z navbatida, ikki guruhga bo‘linadi: iqtisodiy aktiv axoli va iqtisodiy aktiv bo‘lmagan axoli. Iqtisodiy aktiv aholi tushunchasining haqiqiy ma’nosiga to‘g‘ri kelmaydi va kapitalistik mamlakatlarda mehnat resurslaridan foydalanishdagi haqiqiy axvolni buzib ko‘rsatadi. Chunki, mehnat resurslari sonining o‘sishi, asosan, axolining tabiiy o‘sishi hisobiga bo‘ladi.

Mehnat resurslarining geografik jihatdan o‘rganish ikkita muhim aspektda olib boriladi. Mehnatga yaroqli axolining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvchidagi farqlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi, xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish xususiyatlarini o‘rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiq qilishning muhim tomonlarilan biridir.

Sotsialistik mamlakatlarda mexnat resurslaridan foydalanishning muxim xususiyatlaridan biri xotin-qizlarning ijtimoiy ishlab chikarishda keng ishtrok etishidir.

Kapitalistik va rivojlanayotgan mamlakatlarda bolalar va o‘smirlar mexnatidan xamon keng foydalanilayotganligi bu mamlakatlprda mexnat resurslaridan yana bir xususiyatidir.

Rivojlanayotgan kapitalistik maml akatlarda xam,rivojlan ayotgan mamlakatlarda ham ishsizlikni va aholini ishlab chiqarishda to‘la band emasligini doimo qurish mumkin.

Rivojlanayotgan kapitalistik mamlakatlarda texnologik ishsizlik ancha keng tarqalgan. Ishsizlikni bu turi xozirgi zamon ilm-fan texnika revolyutsiyasining kapitalizm sharoitidagi bevosita oqibati bo‘lib , ayrim eski ixtisoslarning kerak bo‘lmay qolishi tufayli, ularning ishlab chiqarishdan uloqtirib tashlashi natijasida vujudga keladi. Sotsialistik mamlakatlar, rivojlangan kapitalistik mamlakatlar va rivojlanayotgan kapitalistik mamlakatlarda iqtisodiy aktiv aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi va resurslaridan foydalanishning bazi bir xususiyatlari bilan tanishamiz.

Sotsialistik mamlakatlarda moddiy ishlab chiqarishning qishloq xo‘jalik tarmog‘ida band bo‘lgan iqtisodiy aktiv aholining salmog‘i borgan sari kamaymoqda.

Bunday sotsialistik mamlakatlarda qishloq xo‘jalgi ishlab chiqarishi o‘smagan yoki kamaygan degan ma’no chiqmaydi, albatta.

Sotsialistik mamlakatlarda qishloq xo‘jaligida ishlovchilar sonining kamayib borishi, sanoat va qurilishda ishlovchilar sonining stabillashuvi, moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish , birinchi navbatda, aholiga bevosita xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarning tez rivojanishi bilan birga sodir bo‘lmoqda.

Rivojlangan kapitalistik mamlakatlarda iqtisodiy aktiv aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi bir xil emas, ayrim mamlakatlar gruppasida bir-biridan ancha farq qiladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlardagi iqtisodiy aktiv aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlarida taqsimlanishi sotsialistik mamlakatlardan ham, kapitalistik mamlakatlardan ham farq qiladi.

Aksincha rivojlanayotgan mamlakatlar aholisi tarkibida 15 Yoshgacha bo‘lgan yosh avlodning salmog‘i ancha yuqori.

Rivojlanayotgan mamlakatlar milliy mustaqillikni qo‘lga kiritganlaridan so‘ng keyingi yillarda sanoatni rivojlantirishga ayniqsa katta etibor bera boshladilar, sanoat ishlarining soni ham o‘sa boshladi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda moddiy bo‘lmagan ishlab chiqarish va xizmat doirasida ishlovchilar ham nisbatan kam.

Shunday qilib, mehnat resurslaridan foydalanishda, iqtisodiy aktiv aholining strukturasida turli tipga mansub bo‘lgan mamlakatlarda keskin farqlar bor.

Agar mehnat resurslarlariga ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan pensionerlar va 16 yoshga etmagan bolalarni qo‘shib xisoblasak, mamlakatimizning real mehnat resurslari barcha axolining ko‘p foizining tashkil etadi.

Mamlakatimizda mavjud bo‘lgan mehnat resurslaridan 115,2 million kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda bevosita ishtirok etgan. Xalq xo‘jaligining biron tarmog‘ida mehnat resurslaridan faydalanishning samaradorligining na shu sohadagi mehnat ulumdorligi bilan belgilanadi.

Mehnat resurslaridan foydalanishning ko‘pgina tomonlarini ijtimoiy ishlab chiqarishdaband bo‘lgan aholining xalq xo‘jaligi tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi haqidagi malumotlar berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotidagi bu xususiyat javalda o‘z aksini topgan. Sanoat va qurilishda ishlovchilarning salmog‘i 1913-1976 yillar ichida barcha xizmat doirasi sohalarida ishloqchilarning salmog‘i besh marta oshgani holda, maorif, sog‘liqni saqlash, fan, madaniyat, san’at sohalarida ishloqchilarning samog‘i 16 manrta ortgan.

Kelajakda fan-texnika taraqqyotidan, yangi texnologiyadan moddiy ishlab chiqarish sohalarida keng foydalanish tufayli, mahsulot ishlab chiqarishni ko‘paytirish ishlovchilar sonini oshirish yo‘li bilan emas, balki unga sarf qilinadigan mehnatni kamaytirish hisobiga amalga oshiriladigan bo‘ladi.

Albatta, mamlakatimizdagi demografik ahvolning yaqin 20 yil ichidagi bunday xususiyatlari mehnat resurslaridan to‘g‘ri va oqilona foydalanishni ayniqsa aktual qilib qo‘ydi.

O‘ninchi besh yillikda mehnat resurslaridan foydalanishning yana bir muhim sifat tomoni hqida ham gapirib o‘tish zarur. Shu munosabat bilan ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashayotgan aholining aqliy mehnar va jismoniy mehnat sohalarida band bo‘lishi hamda ular o‘rtasidagi nisbatning o‘zgarishi ularning bilim darajasi - mehnat resurslaridan foydalanishdagi sifat o‘zgarishlaridir.

Xalq xo‘jaliginig deyarli barcha tarmoqlarida xech qanday bilimni talab qilmaydigan faqat jismoniy mehnatga asoslangan kasblar va bunday ishchilar soni tinmay kamayib, aksincha, mahsus oliy va o‘rta hamda umumiy o‘rta bilimni talab etuvchi kasblar va ularga bo‘lgan talab oshib bormoqda. Bu ma’lumotlar mamlakatimizda mehnat resurslariidan foydalanishdagi juda katta sifat o‘zgarishlarini har bir mehnatkashning o‘z bilimi va malakasini oshirishga juda katta g‘amho‘rlik qilayotanini ko‘rsatuvchi tarixiy faktlardir.

Ketirilgan ma’lumotlarning juda katta tarixiy ahamiyatni tushunish uchun, hozirgi axvolni xotin qizlarning avvalgi axoli bilan solishtirish kifoya qiladi.

Xotin-qizlar xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida mehnat qilish bilan birgalikda, davlatni boshqarish ishlarida ham aktiv ishtirok etmoqdalar. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni geografik o‘rganishning muhim momentlaridan biri mehnat resurslarining strukturasi, dinamikasi va foydalanish harakteridagi territorial farqlarni aniqlashdan iborat.

Biroq, mehnat resurslari ko‘pchilik qismining qishloq xo‘jaligida band bo‘lganligi, xizmat djoirasi tarmoqlarining nisbatan yaxshi taraqqiy etmaganligi natijasida mehnat resurslaridan to‘la foydalanilmaydi.

3. Aholining hududiy joylashishi va aholi migratsiyasi.

Muammoli vaziyat: Urbanizatsiya, aglomeratsiya jarayonlari va ularni sabablarini o‘rganish.

Aholining hududiy joylashuviga tarixiy xo‘jalik jarayonlar va iqtisodiy geografik omillar ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda uzoq zamonlardan buyon aholi asosan yaxshi o‘zlashtirilgan, qulay tabiiy iqtisodiy sharoitga, suv manbalariga ega bo‘lgan vodiylarda ancha zid yashab kelgan va yashab

kelmoqda. Bularga Farg‘ona, Zarafshon vodiylari, Xorazm va Toshkent vohalari kiradi. Qurg‘oqchilik va cho‘l qismlarida oqar suv manbalari bo‘lmaganligi uchun aholining zichligi juda pastdir. O‘zbekistonda aholining o‘rtacha zichligi 1996 yilda 1 km.kv. ga 328,2 kishiga to‘g‘ri keladi. Andijon viloyatida esa 1 km.kv. erga 484 kishi to‘g‘ri keladi. Toshkent viloyatida 248,4 kishi, Xorazmda 356,3 kishi to‘g‘ri keladi. Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida zichlik ancha kam. (69,4 va 75,9). O‘zbekistonda eng siyrak aholiga ega hududlar Navoiy (67,7) va Qoraqalpog‘iston (8,6) kishi bo‘lib, hududning katta qismi Qizilqum cho‘lidan iborat. O‘zbekiston aholisining hududiy taqsimlanishida va o‘sishsh sur’atlarida farqlar ta’siri katta bo‘ladi. O‘zbek va boshqa tub millatli vakillarning o‘lkalararo ko‘chishidagi ishtiroki deyarli barcha darlarda ham bo‘ladi.

1979 yil aholi ro‘yxatiga ko‘ra, Rossiyada 72,4 ming o‘zbek yashagan, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 1918 yilda 7,6 ming, 1916 yilda 29,6 ing, 1917 yilda 54,5 ming kishi boshqa mamlakatlardan O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan.

1926 yilgi axoli ro‘yhatiga ko‘ra, O‘zbekistonga ko‘chib kelganlar soni 437-643 kishi edi. Respublikaning xalq xo‘jaligini industriyalash maorif, sog‘liqni saqlash, fan va madaniyat tadbirlarini rivojlantirish amalga oshirilgan yillarda rus, ukrain, tatar va boshqa millatlarga mansub ko‘plab o‘qituvchi, tibbiyot xodimlari, muxandislar, olimlar O‘zbekistonga ko‘chib kela boshlaganlar. Kelganlarning ko‘pchiligi Toshkent, Farg‘ona, Zarafshon mintaqasi markazlariga kelib joylashgan.

Respublikada ichkki ko‘chishning asosiy yo‘nalishlaridan biri aholining qishloq erlridan shaharlarga ko‘chib kelib joylashishidir. Bu jarayon bozor iqtisodiyoti jarayoni bilan bog‘liq holda rivojlanmoqda.

Muammoli vaziyat: Mexnat resursi jamiyatning eng asosiy kuchi ekanligi iqtisodiy aktiv va aktiv bo‘lmagan guruxlarga bo‘lish. Ish bilan bandliliga erishish muammolarining sabablari.

4. Shaharlar juda qadimgi zamonda ma’muriy hokimiyat, savdo va hunarmandchilik markazi, harbiy qo‘rg‘onlar sifatida Nil, Dajla, Furaot daryolari deltalarida paydo bo‘lgan. Kapitalizmni rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o‘sishi bilan shaharlarda sanoat to‘plandi. Ko‘p shaharlar transport tugunlariga, savdo taqsimot tuunlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma’muriy va madaniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 20-Asr o‘zrtalarida nomoddiy sohalarning o‘sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada kuchaydi. Hozirgi zamon shahari bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud. Masalan, tog‘-kon sanoti shahari ilmiy shahar, kurort shahari va xhatto poytaxt shaharlari ham qurilgan. Ba’zi shaharlar poytaxt qilish uchun maxsus qurilgan.

Urbanizatsiya hozirgi zamondagi eng muhim ijtimoiy iqtisodiy jarayonlardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya deb mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar axolisini salmog‘i ortishi, murakkab shaharchalar shaxobchalari, tizimlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya, jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o‘sish jarayongidan, jamiyatning axoli mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko‘proq shaharlarga xos bo‘lib o‘zgarib borishidan iboratdir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo‘lib ko‘pchilik mamlakatlarga xos bo‘lgan uchta umumiy xususiyatga ega.

Birinchi xususiyat - shahar axolisi sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib borishi. Masalan, 1900 yilda jahon axosilining 14 % ga yaqini shaharlarda yashagan bo‘lsa, 1950 yilda 29 % ga, 1990 yilda 45 % ga etdi. O‘rta hisobda olganda shaharlar aholisi har yili 50 mln kishiga ko‘payib bormoqda.

Axolishunoslarning fikriga ko‘ra, 2000 yilga kelib, shahar axolisi jahon axolisining yarmidan oshib ketdi.

Ikkinchi xususiyat - axoli va xo‘jalikning asosan yirik shaharlarda to‘planishi. Bunga ishlab chiqarish xususiyati, uning ilm-fan, ta’lim bilan aloqasining murakkablashib borayotgani sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari katta shaharlar kishilarning ma’naviy ehtiyojlarini odatda to‘liqroq qondiradi.

Uchinchi xususiyat - shaharlar maydonini kengayib ketishi. Hozirgi zamon shaharlashishi uchun shaharlarning oddiy bir o‘zakli shaklidan shaharlar va qishloqlar tutashib ketib, shaharlar guruhi, shaharlar “uyumi” shakliga, ya’ni shaharlar agromeratsiyasi shakliga o‘tish xosdir.

Urbanizatsiya butun jahon jarayoni sifatida umumiy xususiyatlarga ega bo‘lish bilan birg turli mamlakatlar va hududlarda o‘ziga xos xususiyatga ega. Bu xususiyatlar urbanizatsiyaning har xil darajada ekanligida va sar’atida aks etadi.

Urbanizatsiya darajasi ancha past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda shaharlashish eniga o‘smoqda, shahar axolisi tez ko‘payib bormoqda. Shaharlar axolisining yillik o‘sishi 4/5 qismi rivojlanayotgn mamlakatlarga to‘g‘ri keladi. Shaharliklarning mutloq soni esa iqtisodiy rivojlangan mamlakatlardagidan anchagina oshib ketdi. Ilm fanda shahar portlashi deb nom olgan bu hodisa rivojlanayotgan mamlakatlarning butun sotsial - iqtisodiy taraqqiyotida muhim omillaridan biri bo‘ldi.

Shaharlarning tez o‘sayotganligiga qaramay jahon aholisining yarmidan ortig‘i qishloqlarda yashaydi. Qishloqlarning umumiy soni esa 15-20 mln ga etadi. Qishloq axolisini joylanishida asosan ikki usul mavjud: g‘uj va tarqoq joylashish.

Qishloqlarning mavjudligi tarixiy, iqtisodiy rivojlanishga tabiiy sharoitning xususiyatlariga bog‘liq.

Hozirgi vaqtda urbanizatsiya atrof muhitning o‘zgarishiga katta ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Katta shaharlar va aglomeratsiyalar ifloslikning deyarli asosiy manbai bo‘lib, atrof-muhitga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Birinchi o‘rinda atmosfera havosini ifloslanishi kuzatiladi.

Asosiy xulosa. Axolining hozirgi vaqtdagi o‘sish jarayoni, tarkibi va joylashish ko‘pgina masalalrni tug‘diradi. Bu masalalarning ba’zilari butun jahonga xos bo‘lsa, ayrimlari turli toifadagi mamlakatlarga xosdir. Jahon axolisining tez ko‘payib borayotgani millatlararo munosabatlar, urbanizatsiya masalalari ana shunday muhim muammo masalalardir.

1. Mehnat resurslari haqida tushuncha
2. Iqtisodiy faol axoli
3. Mehnat resurslaridan foydalanish muammolari.

Odatda aholining mehnat faoliyatiga ko‘ra 3 guruhga bo‘linadi.

1. Mehnat yoshigacha - bolalar va o‘smirlar
2. Mehnat yoshidagi - mamlakatning asosiy mehnat resurslari
3. Mehnat yoshidan o‘tgan axoi.

Mehnat resurslariing soni turli mamlakatlarda turlicha, Chunki, axolining yurldik jihatdan belgilab qo‘yilgan va mehnat resurslariga kiritiladigan Yosh chegarasi hamma mamlakatlarda bir xil emas. Xalqaro statistikada,odatda, 15 Yoshdan 65 Yoshgacha bo‘lganlar mexnatga yaroqliaxolixisoblanadi.

Mexnat resurslari ishlab chiqadi zvenosida asosiy vazifani bajargaligi tufayli bu soxani o‘rganish iqtisodiy gyeografiya zimmasidadir. xozirgi iqtsodiy tushunchalar bo‘yicha 16 yoshdan 59 yoshgacha erkaklar, 16 Yoshdan 54 Yoshgacha bo‘lgan xotin-qilar mehnat Yoshidagi axoli sanaladi va mamlakatni asosiy mexnat resurslari xisoblanadi. Bu Yoshdagi axolining xammasi xam ishlaydi deb bo‘lmaydi, albatta. Masalan, ishlab chiqarishdan ajralgan xolda o‘qiyotganlar va salomatligi yomonligi tufayli ishlay olmaydigan invalidlar va h.k. lar shular jmlasidandir. Aksincha pensiya Yoshidan oshib ketgan keksalar va shuningdek, hali 16 yoshga to‘lmagan ba’zi o‘smirlar ham ijtimoiy ishlab chiqarishga ishtirok etadi. Bu mehnatga qobiliyatli aholi tushunchasini kiritishni taqozo qiladi. Mehnatga qobiliyatli aholi deganda har qanday mamlakatning yoshidan qat’iy nazar re’al mehnat resurslari tushuniladi. Bu mehnat resurslari soniga bevosita ta’sir qiladi. Ishchi kuchidan foydalanish muammolarini yanada ratsional hal qilish maqsadida mehnatga qobiliyatli axolini ijtimoiy mehnat bilan bandlik darajasi va haraktrini hisobga olish xalq xo‘jaligi uchun ham muhim ahamiyatga egadir. Hozirgi kunda umuman mamlakatimiz bo‘yicha va alohida iqtisodiy rayonlar, shaharlar bo‘yicha ishchi kuchidan oqilona foydalanish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakat alohida iqtisodiy rayon shahar axolisi tarkibidagi ishga qobiliyatli axoli sonini axolining tabiiy o‘sish darajasiga jins -Yosh strukturasiga mehnat harakati ko‘rsatkichiga va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi. Mehnatga qobiliyatli axoli soni Farg‘ona vodiysi shahar aholisining yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. Bu erda bu ko‘rsatkich O‘zbekistondagi ishga qobiliyatli shahar aholisining salmog‘idan sobiq Ittifoqdagi barcha mehnatga qobiliyatli axolining umumiy axoli tarkibidagi salmog‘ini belgilaydigan umumittifoq ko‘rsatkichidan ancha kamdir. Vodiydagi mehnatga qobiliyatli shahar ahoolisi salmog‘ining kamligi bu erda axoli sonining tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari ancha yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu esa axolining umumiy sonida bolalar va o‘smirlar salmog‘ining ko‘pligiga olib keladi va mehnatga qobiliyatli axolining salmog‘iga bevosita ta’sir qo‘llaniladi. Shunday qilib vodiydagi biz so‘z yuritgan yosh strukturasi 16 Yoshgacha bolalardan iborat anchagina mehnat resurslari rezervi va axolining yangi-yangi kontingentini ijtimoiy ishlab chiqarishga doimo jalb qilib turish imkoniyati mavjudligi nuqtai nazardan umuman qulaylik tug‘diradi. Butun O‘rta Osiyoda bo‘lgani kabi Farg‘ona vodiysida ham mehnat resurslarining o‘sish sur’atlari nisbatan yuksakligiga va texnika taraqqiyotining katta muvaffaqiyatlariga qaramay, sanoat va madaniyatning tezlik bilan o‘sishi negizida mehnatga qobiliyatli axolini ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonlarida band butun axolining 40 % bevosita ijtimoiy mehnat bilan shug‘ullanadi. Farg‘ona vodiysi shaharlaridagi mehnat resurslarining ish bilan bandlik darajasi umumittifoq darajasiga deyarli tengdir.

Mehnat resurslarini unumdorligiga ko‘ra 5 guruhga bo‘lib o‘rganiladi.

1. 16 yoshdan -19 yoshgacha ko‘proq majburiy holdagi mehnat resurslari sifatidagi ishlar namoyon qilinadi.

2. 20 yoshdan - 29 yoshgacha. Bu davr mehnat resurslarining Yoshlik davri bo‘lib, asosiy vaqt va kuch mehnatga tayyorlanishga sarflanadi.

3. 30 yoshdan - 39 yoshgacha bo‘lgan axoli aktiv mehnat resurslari hisoblanadi.

4. 40 yoshdan - 49 yoshgacha bo‘lgan axoli mehnat resurslarini o‘rta daridir. Bu davrda to‘plangan bilim, ko‘nikma va malakalar ishga solinadi.

5. 50 yoshdan - 59 yoshgacha bo‘lgan davr mehnat resurslarining katta davridir. Unumdorlikda pasayish boshlanadi.

Mehnatga yaroqli axoli o‘z navbatida 2 guruhga bo‘linadi: iqtisodiy aktiv axoli va iqtisodiy aktiv bo‘lmagan axoli.

Mehnat resurslarini geografik jihatdan o‘rganish mamlakatlar va rayonlar axolisining hududiy joylanish uning Yosh tarkibini o‘rganish bilan birga mehnatga yaroqli aholining ishlab chiqarishda qatnashuvi va bu qatnashuvdagi fikrlar hamda ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok etayotganlarning xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlari bo‘yicha taqsimlanishi xalq xo‘jaligi ayrim tarmoqlarida ishchi kuchidan mavsumiy foydalanish

xususiyatlarini o‘rganish ham mehnat resurslaridan foydalanishni geografik tadqiqot qilishning muhim tomonlaridan biridir.

MAVZU: AXOLINING YOSH VA JINSIY TARKIBI.

REJA:

1. Jinslar takribi: erkaklar bilan xotinlar nisbati.
2.Yoshlar bo‘yicha tarkibi: mehnat resurslariiga ta’siri
3. Aholining iqtisodiy faolligi.

1. Jins tarkibi: erkaklar bilan xotinlar nisbati.

Tabiatda erkaklar bilan ayollar bir xil miqdorda tug‘ilmaydi. Aslida 100 ta qizbola tug‘ilganda taxminan 104-107 ta o‘g‘il bola tug‘ilsa ha lekin 15 Yoshgacha etganda ikkala jinsdagi bolalr soni tenglashadi. Lekin axolining bundan keyingi yoshlar bo‘yicha guruhlarida axolining jins tarkibi turli mamlakatlarda turlicha tarkib topadi. Dunyodagi mamlakatlarning taxminan yarmida ayollar soni erkaklardan ortiq. Bunga sabab shuki, ayollarning o‘rtacha umri erkaklarnikiga qaraganda biroz ortiq bo‘ladi. Ba’zi bir mamlakatlarda ayolarning erkaklar soniga qaraganda ancha ko‘pligiga bu mamlakatlarda ikkinchi jahon urushida erkaklarning ko‘plab qirilganligi sababdir. Lekin hayotga yangi Yosh avlodlarning kirib kelishi bilan aholi sonidagi bu farqlar asta-sekin kamayib boryapti. Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mavqei tarixdan noqulay bo‘lgan, erta turmush qurish, qashshoqlik va kasallik sharoitida erta va ko‘p bola ko‘rish mamlakatlarda erkaklar soni ayollar sonidan ortiq. Butun jahon aholisi jinslari nisbatiga Hitoy bilan Hindistondagi erkaklarning ayollardan ancha ko‘pligi ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to‘g‘ri keladi. Yoshlar bo‘yicha tarkibi: mehnat resurslariiga ta’siri. Qadimgi yunon matematigi va faylasufi Pifagor inson hayotini yoil fasllariga qiyoslab, inson umrida to‘rt faslni bahor bolalik, yoz Yoshlik, kuz etuklik, va qish qarilikni farq qilishni taklif qiladi.

Mamlakat hududini mazkur fasllardan biriga kiritish birinchi galda tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Shu sababli aholining yoshlar bo’yicha asoiy turlari umuman olganda uning ko‘payishi turiga bog‘liqdir. Axolining yoshlar bo‘yicha va jinsiy tarkibini taxlil qilish uchun maxsu diagramma turi - axolining yoshlar bo‘yicha va jins tarkibi piramidasi qo‘llaniladi. Axolining asosi inson qismi mehnat resurslarini aniqlashda uning Yoshi mezon bo‘ladi. Axolining iqtisodiy faolligini mehnat resurslarining ishlab chiqarishda jalb qilinganlik darajasini ko‘rsatadi.

Butun dunyo aholisining 45 % yoki 2 mlrd dan ortiqroq qismi iqtisodiy faol axoli hisoblanadi. Rossiyada, xorijiy Yevropa va Shimoliy Amerika mamlakatlarida axolining ish bilan bandligi juda yuqori bo‘lgani

holda faol axoli ko‘rsatkichi 48-50% umujahon ko‘rsatkichidan ancha yuqori. Osiyo, Afrika va lotin Amerikasi mamlakatlarida bu ko‘rsatkich jahondagi o‘rtacha past 35-40 %. Bunga bu mamlakatlarning umumiy iqtisodiy qoloqligi, millionlab sonida yosh bolalar salmog‘ining juda katta ekanligi, ayollarning ijtimoiy ishlab chiqarishga ancha kam jalb qilinganligi sababdir.

Shahar va qishloq aholilarini qiyos qilamiz. Shahar axolisi shaharlar mavqeini o‘sishi. Siz tarix fanlaridan o‘qib bilib olganingizdek, shaarlar juda qadimgi zamonda ma’muriy hokimiyat savdo va hunarmandchilik markazlari, harbiy qo‘rg‘onlar sifatida Nil, Dajla va Furot daryolari deltalarida paydo bo‘lgan. Kapitalizmning rivojlanishi va yirik mashinasozlik sanoati, transport va jahon bozorining o‘sishi bilan shaharlarda sanoat to‘plandi, ko‘p shaharlar transport tushunlariga, savdo-taqsimot markazlariga aylanib bordi. Shaharlarning ma’muriy va madniy markazlar sifatidagi mavqelari kuchaydi. 19-Asr o‘rtalarida nomoddiy ishlab chiqarish sohalarining o‘sishi bilan shaharlarning vazifalari yanada ko‘paydi. Hozirgi zamon shahar odatda bir qancha vazifani bajaradi. Lekin bir xil vazifani bajaruvchi shaharlar ham mavjud.

Shahar deb, mamlakatda, hudud va jahonda shaharlarning o‘sishi va shahar axolisi salmog‘ining oshshiga, murakkab shaharlar shahobchalari, tizimlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga aytiladi. Binobarin, urbanizatsiya jamiyat hayotida shaharlar ahamiyatining tarixiy o‘sish jarayonidan, jamiyatning axoli mehnati, turmush tarzi va madaniyatining ko‘proq shaharlarga xos bo‘lib, o‘zgarib boishidan iboratdir. Urbanizatsiya sotsial - iqtisodiy traqqiyotning eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Hozirgi zamon urbanizatsiyasi butun jahonga tegishli jarayon bo‘lib, ko‘pchilik mamlakatlariga xos bo‘lgan uchta umumiy xususiyatlarga egadir. Birinchi xususiyat shahar ahosili sonining xususan rivojlanayotgan mamlakatlarda tez sur’atlar bilan o‘sib borish. Qishloq axolisi: qishloq va forma.

Axolining hozirgi vaqtda o‘sish jarayoni, tarkibi joylashishi ko‘pgina murakkab masalalarga xosdir. Jahon ahosilining tez ko‘pyib borayotgani millatlararo munosabatlar, urbanizatsiya masalalari ana shunday muhim muammo masalalaridir.

Tabiatda erkaklar bilan ayollar bir xil miqdorda tug’ilmaydi. Aslida har 100 ta qiz bola tug‘ilganda 104-107 o‘g‘il bola tug‘iladi. Lekin bu ikkala jins 13 Yoshgacha borganda tabiiy ravishda soni tenglashadi. Ammo axolining bundan keyingi Yoshlar bo‘yicha guruhlardagi axolining jins tarkibi turli mamlakatlarda turlicha tarkib topadi.

Dunyodagi mamlakatlarning taxminan yarmida ayollar soni erkaklar sonidan ortiq. Bunga sabab shuki, ayollarning o‘rtacha umri erkaklarnikidan biroz ortiq bo‘ladi. Ba’zi bir mamlakatlarda erkaklarning ikkinchi jahon

urushida ko‘plab qirilganligidir. Lekin hayotga yangi avlodning kirib kelishi bilan aholi sonidagi bu farqlar asta-sekin kamayib boryapti.

Ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy mavqei tarixdan noqulay bo‘lgan, erta turmush qurish, qashshoqlik va kasallik sharoitida erta va ko‘p bola ko‘rish mamlakatlarda erkaklar soni ayollar sonidan ortiq. Butun jahon aholisi jinslari nisbatiga Hitoy bilan Hindistondagi erkaklarning ayollardan ancha ko‘pligi ayniqsa kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Umuman olganda har 1000 ta ayolga 1009 ta erkak to‘g‘ri keladi.

Hozirgi vaqtda axolining miqdorigina emas, balki uning sifati ham katta ahamiyat kasb etadi. Axolining sifati tushunchasi turmush va ovqatlanish sharoitini, sog‘ligini, yangiliklarni qabul qilib olish malakasini o‘z ichiga oladi. Savodxonlik, umumiy va maxsus bilim darajasi ham aholi sifati tushunchasinig muhim belgilaridan biridir.